

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA  
MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

**TOSHKENT MOLIYA INSTITUTI**

**MOLIYAVIY MENEJMENT FAKULTETI**

**“MENEJMENT VA MARKETING” KAFEDRASI**

**JO'RAYEV DOSTONJON MA'RUF O'GLI**

**«INNOVATSION TADBIRKORLIKNI TASHKIL ETISH VA UNI  
BOSHQARISHNI RIVOJLANTIRISH »**

*«Moliyaviy menejment» fakulteti dekani iqtisod  
fanlari nomzodi  
Astanakulov Olim Tashtemirovich  
« \_\_\_\_ » \_\_\_\_\_ 2016*

**«HIMOYAGA RUXSAT ETILDI»**  
*«Menejment va marketing» kafedrası mudiri  
iqtisod fanlari nomzodi, dotsent  
Asatullaev Xurshid Sunatullaevich  
« \_\_\_\_ » \_\_\_\_\_ 2016*

**Bitiruvchi :**

*5230200 - “Menejment” - ta'lim yo'nalishi  
4 -kurs talabasi  
Jo'rayev Dostonjon Ma'ruf o'g'li*

**Ilmiy rahbar:**

*i.f.d.prof.Nazarova Fotima Xakimovna*

## MUNDARIJA

<b>KIRISH.....</b>	<b>3</b>
<b>I BOB. INNOVATSION TADBIRKORLIKNI TASHKIL ETISH- NING NAZARIY ASOSLARI.....</b>	<b>6</b>
1.1. Innovatsion tadbirkorlik tushunchalarining mazmuni va mohiyati.....	6
1.2. Innovatsion tadbirkorlikning asosiy tamoyillar va vazifalari.....	14
1.3. Innovatsion tadbirkorlikni tashkil etish asoslari.....	21
<b>Birinchi bob bo'yicha xulosa.....</b>	<b>28</b>
<b>II BOB. JIZZAX SHAHAR HOKIMLIGI MOLIYA BO'LIMI- NING INNOVATSION TADBIRKORLIKNI RIVOJLAN- TIRISHDAGI O`RNI.....</b>	<b>29</b>
2.1. Jizzax shahar hokimligi Moliya bo'limining tashkil topishi, maqsadi va vazifalari.....	29
2.2. Jizzax shahar hokimligi Moliya bo'limining tashkiliy tuzilishi, daromadlari tarkibi va tuzilishining tahlili.....	35
2.3. Budget daromadlari shakllanishi va xarajatlar yo'nalishining tahlili.....	41
<b>Ikkinchi bob bo'yicha xulosa.....</b>	<b>47</b>
<b>III BOB. INNOVATSION TADBIRKORLIKNI BOSHQARISHNI TAKOMILLASHTIRISH YO`NALISHLARI.....</b>	<b>49</b>
3.1. O'zbekistonda innovatsion tadbirkorlikni rivojlantirish yo`- nalishlari.....	49
3.2. O'zbekistonda innovatsion tadbirkorlikni rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish yo'llari.....	53
<b>Uchinchi bob bo'yicha xulosa.....</b>	<b>58</b>
<b>XULOSA VA TAKLIFLAR.....</b>	<b>59</b>
<b>FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI.....</b>	<b>62</b>

## KIRISH

**Bitiruv malakaviy ishi mavzusining dolzarbligi.** Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni jadal rivojlantirish har qanday mamlakat iqtisodiyotining barqaror o'sishini ta'minlovchi asosiy bo'g'in va amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlarning ustuvor yo'nalishi hisoblanadi. Respublikamizda ham Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik va xususiy tadbirkorlikni barqaror rivojlantirish va uni qo'llab-quvvatlash mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining asosiy ustuvor yo'nalishlaridan biri qilib belgilangan.

Darhaqiqat, mamlakatimizda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni davlat tomonidan doimiy qo'llab-quvvatlanishi natijasida uning yalpi ichki mahsulotdagi ulushi 2000 yilda 31,0 foiz tashkil qilgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2015 yilga kelib 56,4 foizga etgan. Ko'rinib turibdiki, Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik makroiqtisodiy jihatdan mamlakat iqtisodiyotining barqaror rivojlanishini ta'minlash, ijtimoiy jihatdan esa yangi ish o'rinlarini yaratish hisobiga aholi daromadlari va to'lov qobiliyatini oshirish imkoniyatini bermoqda.<sup>1</sup>

Shuningdek, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni barqaror rivojlantirish, qo'llab-quvvatlashdagi davlatning oqilona iqtisodiy siyosati natijasida mamlakatimizda qulay makroiqtisodiy muhit yaratildi. Jumladan, xususiy mulk va tadbirkorlik huquqini himoya qilish borasidagi qonunchilik mustahkamlandi, ro'yxatga olish, ixtiyoriy ravishda ro'yxatdan chiqarish va tugatish, ayrim faoliyat turlari bo'yicha litsenziya va ruxsatnomalarni berish jarayonlari soddalashtirildi, davlatning kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyatiga aralashuvi cheklandi, tadbirkorlik subyektlari topshiradigan hisobotlarning barcha shakllari va muddatlari keskin qisqartirildi, soliq stavkalari unifikatsiya qilindi, moddiy-texnik resurslardan keng foydalanishga imkon beradigan bozor mexanizmi shakllandi.

Amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlar, birinchi navbatda soliq yukini kamaytirishga qaratilgan oqilona soliq siyosati natijasida, Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari uchun yagona soliq to'lovi stavkasi 1996 yilda 38 foizdan

---

<sup>1</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning mamlakatimizni 2015 yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2016 yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasi majlisidagi ma'ruzasi. Xalq so'zi. 2016 yil.

2012 yilda 5 foizga kamaytirilishi Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining ishbilarmonlik faoliyati va moliyaviy barqarorligini ta'minlashga xizmat qilmoqda (1-rasm). Buning natijasida, Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining investitsion faoliyati kengaymoqda va bo'shab qolgan pul mablag'larini birinchi navbatda ishlab chiqarishni texnologik yangilash va zamonaviy texnikani joriy etishga yo'naltirish imkoni paydo bo'ldi.

Shuningdek, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlariga O'zbekiston Respublikasi tijorat banklari tomonidan berilgan kreditlarning miqdori sezilarli darajada oshmoqda. Jumladan, 2001 yilda ushbu sohani rivojlantirish uchun banklar tomonidan ajratilgan kreditlar miqdori 171,5 mlrd. so'mni tashkil qilgan bo'lsa, ushbu ko'rsatkich 2015 yilga kelib qariyb 28 barobarga oshdi va 4377 mlrd. so'mni tashkil qildi. O'sish tendentsiyasining mavjudligi banklar tomonidan kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni kreditlash siyosati izchillik bilan davom ettirilayotganligidan dalolat beradi.

Biroq, bugungi kunda jahon miqyosida raqobat va iste'molchilar talabining kuchayishi, tarmoqlar ishlab chiqarishidagi diversifikatsiyalashuv va ixtisoslashuvning chuqurlashuvi jarayonlari ta'siri ostida Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyatining o'zgarishi kuzatilmoqda. Bunday jarayon kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning iqtisodiy mohiyati va uning mamlakat iqtisodiyotidagi tutgan o'rniga nisbatan kengroq yondashuv zarurligini talab etmoqda.

Jahon iqtisodiyoti rivojlanishining hozirgi bosqichi innovatsion jarayonlar uzluksizligini ta'minlash va ko'lamini oshirish bilan xarakterlanadi. Bunday sharoitda Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik samaradorligi o'z faoliyatini fan yutuqlariga asoslangan ishlanmalar, sanoatda keng ko'lamli ilm-fan sig'imi yuqori bo'lgan mahsulotlar ishlab chiqarishni joriy qilish, shuningdek, ilmiy ixtiro natijalarini tijoratlashirishga yo'naltirganligi bilan belgilanadi. Ushbu omillar iqtisodiyotda kichik innovatsion biznes shakllanishiga asos bo'ladi.

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda, jahon va mamlakat miqyosidagi raqobatning kuchayishi va jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi sharoitida kichik innovatsion tadbirkorlikni rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini

takomillashtirish muhim ahamiyat kasb etadi.

**BMI obyekt.** Jizzax shahar hokimligi Moliya bo'limi bitiruv malakaviy ishining obyekt hisoblanadi.

**BMI predmeti.** bo'lib, innovatsion tadbirkorlikni tashkil etish va uni boshqarishni rivojlantirish jarayonida sodir bo'ladigan iqtisodiy munosabatlarni boshqarishning innovatsion yo'llari o'rganishdan iborat.

**BMI maqsadi va vazifalari.** Ishning asosiy maqsadi – mamlakatimiz innovatsion tadbirkorlikni tashkil etish va uni boshqarishni rivojlantirishga oid amaliy tavsiyalarni ishlab chiqishdan iborat.

Bitiruv malakaviy ishining oldiga qo'yilgan maqsadga erishish uchun quyidagi vazifalar belgilab olindi:

-innovatsion tadbirkorlikni tashkil etishning nazariy-uslubiy asoslarini tadqiq etish;

- innovatsion tadbirkorlikni tashkil etish tizimini asoslab berish;

-Jizzax shahar hokimligi Moliya bo'limining tashkiliy tuzilishi, tahlil qilish;

-Jizzax shahar hokimligi Moliya bo'limining daromadlari tarkibi va tuzilishining tahlil qilish;

- O'zbekistanda innovatsion tadbirkorlikni rivojlantirish yo`nalishlari;

- O'zbekistonda innovatsion tadbirkorlikni rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish bo'yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqish.

**BMI nazariy va amaliy ahaamiyati.** Innovatsion tadbirkorlikni tashkil etish va uni boshqarishni rivojlantirish bo'yicha faoliyatining mohiyatini, ularni boshqarish bo'yicha boshqaruv qarorlarini ishlab qilish, nazorat qilish, ularni strategiyasini ishlab chiqish usullari to'g'risida nazariy va amaliy bilimlar doirasini kengaytiradi.

**BMI tarkibining qisqacha tavsifi.** Bitiruv malakaviy ishining tarkibi 85 bet, tuzilmasi kirish, uch bob, xulosa va takliflar, 6 ta jadval va 5 ta rasm, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat.

## **I BOB. INOVATSION TADBIRKORLIKNI TASHKIL ETISHNING NAZARIY ASOSLARI**

### **1.1. Innovatsion tadbirkorlik tushunchalarining mazmuni va mohiyati.**

Tadbirkorlikni – kapitalni yo'naltirishning yangi sohalarini izlash, mavjud mahsulotlar ishlab chiqarishni takomillashtirish va yangilarini yaratish, shaxsiy ustuvorlikni rivojlantirish, daromad olish uchun turli imkoniyatlardan samarali foydalanish deb ta'riflash mumkin. Shu bilan birga tadbirkorlik bozor uchun yangi mahsulot ishlab chiqarish, faoliyat sohasining o'zgartirilishi yoki yangisi korxonaga yoki tarmoq barpo etilishida majburiy foydalanish deb tavsiflanadi.

Tadbirkorlik mohiyatini idrok etishda tadbirkorlarning o'zaro bog'liq to'rt faoliyatini alohida ko'rsatgan amerikalik iqtisodchilar R.Mak Konnell va S.Yu. Bryularning quyidagi nuqtai nazarlari alohida ahamiyat kasb etadi:

– tadbirkor yer, mablag' va mehnat resurslarini mahsulot ishlab chiqarish hamda xizmat jarayoniga birlashtirish tashabbusini o'z zimmasiga oladi;

– tadbirkor biznesni olib borish jarayonida asosiy qarorlarni ishlab chiqish va qabul qilishni, ya'ni biznesni rivojlantirish yo'nalishlari, korxonaga faoliyati yo'nalishini belgilovchi operatsiyalarni o'z zimmasiga oladi;

– tadbirkor yangi mahsulot (xizmat)larni ishlab chiqarishga intiluvchi, yangi ishlab chiqarish texnologiyalarini ishlab chiqaruvchi yoki biznesni tashkil qilishni va rivojlanishning yangi shakllarini olib kiruvchi tashabbuskor shaxsdir;

– tadbirkor tadbirkorlik faoliyatida yuzaga keladigan xavfni o'z zimmasiga oladi, zero, tadbirkor uchun daromad olish kafolatlanmagan, sarf etilgan vaqt, harakat va qobiliyatlardan daromad olish barobarida zarar ko'rish ham mumkin. Bunday hollarda tadbirkor nafaqat o'zining o'z vaqti, mehnati va ishbilarmonlik obro'si bilan, balki sarf etilgan mablag' bilan ham tavakkal qiladi.

Shunday qilib, ijodkorlik tadbirkorlik vazifalaridan biri bo'lib, tadbirkorlik faoliyatida doim mavjud bo'lishi shartdir.

Tashkilotni o'sish turidan tadbirkorlik turiga aylanishi. Faoliyatning tadbirkorlik usuli keng tarqalgan o'sish usulidan tubdan farq qiladi. Tashkilotning

ichki azaliy odatlaridan oz bo'lsa ham voz kechish va shuningdek, tovar olib keluvchilar, sheriklar, iste'molchilar bilan munosabatiga yo'naltirilgan tashkilotning asoschilari (mulk egalari, rahbariyat, aksionerlar) tadbirkorlik usuli ahloq, faoliyat motivatsiyasida uzoq maqsadga yo'naltirilgan o'zgarishlar hamda tashkiliy tuzilmani boshqarish tizimi, rahbarlarni tayyorlarni darajasi va mutaxassislarni menejer hamda rahbar sifatida tayyorlash bilan bog'liq. Bu o'zgarishni aksionerlik va xususiylashtirish natijasida paydo bo'luvchi tashkilotning xususiy mulkka yangi munosabati jarayonida o'zlashtirish zarur.

Agar tashkilotda barqaror xulq-atvorni o'sib boruvchi usuli o'rnatilgan bo'lsa, u holda sezilarli o'zgarishlar amalga oshirishga shart bo'lmay, bozor iqtisodiga sharoitida uning faoliyatida muvaffaqiyatga erishish imkoniyati pasayib boradi.

Tasavvur qilish joizki, innovatsion tadbirkorlik usuliga o'tish uchun qaysi yo'nalishdan harakat qilish kerak, tashkilotning xarakter faoliyatida o'sish va tadbirkorlik ko'rinishini taqqoslaymiz.

Tashkilot maqsadi. O'sish tashkilotning ish sharoitini zamonaviylashuvi sharoitida foydaning unga mos bo'lishini taqozo etadi. Innovatsion tadbirkorlik faoliyati uchun foyda imkoniyatini o'sishga erishishga harakat qilishdan iborat. Texnologiyaga yangi kiritilgan, uzulmas zanjirga ega bo'lgani kabi, shuningdek, tashkiliy jihatdan ham yangiliklarga ega bo'lishi kerak.

Maqsadga erishish yo'llari. O'sish holatidagi tashkilot avvalgi tajribasiga suyanadi va hozirgi paytdagi faoliyati sharoitiga moslashadi. Innovatsion tadbirkorlik ko'rinishidagi tashkilot esa innovatsion loyixalar asosida foyda olish imkoniyatini baholash va boshqaruv sifatini yaxshilash asosida maqsadga erishish yo'lini aniqlaydi.

Cheklovlar. Xulq-atvorning o'sishi jarayonida chegaralash tashkilot doirasidagi vositalari va ichki imkoniyatlari bilan aniqlanadi. Innovatsion tadbirkorlik usuli uchun atrofdagi vositalarni o'zgartirish xarakterlidir (masalan, kerakli loyixalarni va texnologik jihozlarni tanlash yoki ular o'rtasidagi o'zaro harakat xarakterini o'zgartirish), yangi ish o'rinlarini tashkil qilish, o'zini boshqarishning har xil usullarni ichki va tashkilotdan tashqari holda (masalan,

bozor talabi; raqobatiga o'zini moslash, raqobatning zarurligini asosi sifatida qabul qilish, innovatsiya va tadbirkorlik harakati; professor-ukituvchilarni yangiliklarni kiritishga bo'lgan qarshiliklarini ijtimoiy yo'naltirilgan holda bartaraf etish va shu kabilar).

Taqdirlash va jazolash tizimi.

O'sish holatidagi tashkilotda barqarorlik kengaytiriladi. O'sish holatidagi tashkilot ijodkorlik va tashabbus kengaytiriladi va tashabbuskorlikni rivojlantirishga bo'lgan to'siqlar va qarshiliklar qoralanadi.

Axborot. O'sish sharoiti uchun faoliyat natijalari va ishning jarayoni haqida ichki ma'lumot va uzoq muddatli tashqi istiqbol imkoniyatlar ko'lami belgilanadi. Innovatsion tadbirkorlik usuli uchun imkoniyatlar haqidagi ichki ma'lumot va global darajadagi imkoniyatlar haqidagi tashqi ma'lumot talab etiladi.

Muammo xususiyati. Xulq-atvordagi o'sish takrorlanadigan tanish muammolar doirasidan chiqmaydi. Innovatsion tadbirkorlik xulqi yangi, takrorlanmas muammolar bilan ish olib boradi.

Rahbarlik usuli. Rahbarlikda o'sish va mashxurlik uchun harakat va erishishga yagona yondashuv xarakterlidir. Innovatsion tadbirkorlik omili uchun esa tavakkalli harakatlarni yo'lga qo'yishi va personalni yangiliklarni qabul qila olishiga erishishidan iborat.

Tashkiliy tuzilma. O'sish holatidagi tashkilot uchun doimiy va kengayuvchi tizim va tashkiliy faoliyat resurslarini qayta ishlash jarayonida texnika bilan mosligi xususiyatlidir. Faoliyatning har xil ko'rinishlari ( ta'lim xizmati, marketing, yangi loyixalar va boshqaruv, va ijtimoiy rivojlanish) uzviy bog'langan.

Boshqaruv muammolarini hal qilish. O'sish holatida kech qolish bilan harakat qilishni tan olish, paydo bo'layotgan muammoni ko'rsatishdir. Bunga muqobilini tanlash o'tgan tajribaga asoslanadi. Talabgorlarning ehtiyojini qondirish uchun yagona muqobili ko'rib chiqiladi. Innovatsion tadbirkorlikda faol imkoniyatlarni qidirish va muammolarni oldindan ko'rish xarakterlidir. Muqobilini ijodiy tanlash va izlashda katta o'zgarishlarni keltirib chiqaruvchi qarorlar qabul qilish uchun faoliyat olib borish lozim bo'ladi. Ko'plab muqobillarini ko'rib chiqish orqali eng



yaxshisi tanlab olinadi.

Tavakkalchilikka munosabat. Oddiy tashkilot uchun o'tgan tajribaga asoslangan holda tavakkalni kamaytirishga erishish xarakterlidir. Innovatsion tadbirkorlik xulq-atvori uchun esa yangi tavakkalni yaratib borishga bo'lgan moyillik va tavakkalning jami variantlarni tenglashtirish xarakterli. Tadbirkorlik xulq-atvorini baholash darajasi ikki xulq turlarini taqqoslash asosida amalga oshirilishi mumkin. Agar o'sish holatidagi tashkilot hamma tavsiflar bo'yicha -5 ball to'plasa, innovatsion tadbirkorlik xulq-atvori esa baho +5 ball, aralash holatda esa baho intervali -5+5 ball o'rtasida bo'ladi. Noldan yuqori ball bu xususiyatning tashkilot tadbirkorlikka yaqin degan ma'noni anglatadi. Tashkilotga tashkiliy xulq-atvor bahosi o'z xulqini qanday usul bilan almashtirish kerakligi imkoniyatini beradi.

Innovatsion tadbirkorlikning rivojlanishi ko'p omillarga bog'liq, ular orasida muhim ahamiyatga ega bo'lgan innovatsion doiradagi tadbirkorlikning tashkiliy shakllari mavjud. Ijtimoiy-iqtisodiy faoliyat har-xil shakllarning rivojlanishi darajasi va bosqichining ahamiyati ularning tashkiliy rivojlanish darajasi va tashkilotga bog'liq. Tashkilotning ichki tartib tizimi, uning bo'limlari bilan o'zaro harakatni, jarayonlar va harakatlar mosligini, bo'limlar o'rtasidagi to'liq o'zaro aloqa va ta'lim yo'naltirilganligini xarakterlaydi. Ijtimoiy faoliyat darajasida tashkilot kishilarning birlashishini, u yoki bu dasturlarning aniq maqsadga erishishi jarayonida birga ishlab chiqish, o'rnatilgan xulq-atvor normalari va qoidalariga mos harakat qilishni namoyon etadi. Tashkiliy rivojlanish darajasi uchun maqsadni amalga oshirishda samaradorlik katta ahamiyatga ega. Tashkiliy rivojlanish darajasida sinergetik natija elementlarni bo'lingan qismlari yig'indisi ularning tashkilotdan tashqaridagi tarqoq qismlarining faoliyatini ta'minlaydi. Kibernetikada ob'ektlarning tizimli rivojlanish darajasi sifatida tashkilotning rivojlantirishdagi ob'ektlarining asosiy g'oyalari muammosini o'rganish o'z ifodasini topgan. Tashkilot boshqarish jarayoni va tarkibiy tizimi, ularning turfa darajasi o'rtasidagi innovatsion o'zaro harakatni namoyon etadi. Innovatsion tadbirkorlikning tashkiliy tuzilmalari amalga oshirishda tashkilot shakllari,

innovatsion faoliyat tashkiliy usullari katta ahamiyatga ega. Innovatsion tadbirkorlikda tashkiliy shakllarni innovatsion g'oyalarni amalga oshirishni hal qilishda rol o'ynaydi. Innovatsion g'oya innovatsion tadbirkorlikning faqat boshlang'ich bosqichini ko'rib chiqadi. Uni amalga oshirish esa tashkiliy tuzilma bilan bog'liq.

Bugungi kunda dunyoda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning innovatsion omili sifatida innovatsion tadbirkorlikning turfa tashkiliy shakllari keng rivojlanmoqda. Shakllarning har xilligi, innovatsion tashkiliy tizim innovatsion faoliyatning asoslarini o'zgartirilgan ko'lamda innovatsiya bilan bog'liq innovatsion loyihalar taklifi doirasini aniqlaydi. Innovatsiyaning tashkiliy shakli yoki innovatsion tashkilotning umumiy yaqinlashuvi alohida korxonalar sifatida yoki uning bo'limlari, yoki majmuaviy korxonalar, aniq ierarxik tarkibiy qism va boshqaruv mexanizmi faoliyatini xususiyatini belgilovchisi sifatida ko'rish mumkin, innovatsiyaning zarurligi asoslangan, innovatsion g'oyalar bazasining paydo bo'lishi, innovatsiyani amalga oshirish maqsadi bilan tashkiliy innovatsion jarayonlar va texnologiyani qo'llash va aniqlashni ta'minlaydi. Zamonaviy innovatsion rivojlanish tajribasi innovatsion tadbirkorlik tashkiliy shaklining har xilligi farqlanadi.

- yaratilgan innovatsiyaning asoslari – yangi texnika, yangi texnologiya, yangi materiallar, yangi qarorlar, yangi ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish muammolarining kiritilishi;

- innovatsion jarayonning egallangan kengligi: fundamental tadqiqot o'tkazilgan ilmiy-tadqiqotlarning qayta ishlanishi loyihaning ishlari tajribalari ishlab chiqarishni o'zlashtirish va amalga oshirish;

- boshqaruv darajasi – xalqaro, respublika miqyosida tarmoqli, mintaqaviy, tashkilotlar uyushmasi, tashkilot, bo'lim;

- tuzilmali bo'limni xududiy joylashishi har xil geografik va iqtisodiy mintaqalar yoki bitta tumanda;

- tashkilot bo'limlarining ierarxik shakllari aloqalari – vertikal, gorizantal, aralash;

- innovatsion tadbirkorlikni amalga oshirish shakllari – fan, sanoat ishlab

chiqarish, agrar sektor, sotsial doira, ekologiya, gumatinar muammolar;

- innovatsion tadbirkorlikning subyektlari – jismoniy shaxs, yuridik shaxs, vazirlik, oliy ukuv yurtlari, markazlar, mablag'li ishlab chiqarish guruhlari;

- ishlangan innovatsion tadbirkorlikning xarakteri – majmuaviy keng oliy ta'lim tizimidagi informatsion texnologiyalar, jihozlar, ishlovchi materiallar va tarkibiy bazasi, ishlovchi va tugallangan loyixalar, ishlab chiqilgan ma'lumotlar va darsliklar, ukuv kullanma, monografiyalar bilan ta'minlash, tavsiyalar usuli;

- ijrochilar birlashmasi usullari – vaqtinchalik jamoalar, mutaxassislashtirilgan sohalaridagi ijodiy jamoalar, fondning har xil turlari, inkubatorlar, texnoparklar, texnopolislar.

Zamonaviy ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning tezlashtirilish ahamiyatli darajada innovatsion jarayonning samaradorligi bilan bog'liq. O'z navbatida innovatsion jarayonning samaradorligi innovatsion biznes tashkiliy tuzilmasining mustahkamligi, innovatsion tadbirkorlik bilan aniqlanadi. Innovatsion tadbirkorlikning avzalligi innovatsion g'oyalarni qidirishga intilish, yangi loyihalarni amalga oshirishga intilish va qayta ishlash adekvativ tashkiliy mexanizmlarni talab qiladi. Innovatsion tadbirkorlikning tashkiliy shakllarining mustahkamligi uning avzalligini kapital ishlab chiqarishning an'anaviy usullari bilan aniqlanadi. Innovatsion tadbirkorlikning tashkiliy tuzilmasining mustahkamligi innovatsion jarayonning aniq topshiriqlarini rivojlanishini, zaxiralar bilan ta'minlanganligi, aniq ma'lumot ba'zasiga egaligi, innovatsion loyihani amalga oshirish doirasini ko'rsatadi. Aynan shu paytda innovatsion tadbirkorlikning tashkiliy tizimi umumiy xususiyati hamda ularda tavakkal omilining o'zlashtirilishi, maqsadga erishishida noaniqlik va oxirgi natijalar bilan bog'liq.

Hozirgi paytda jaxon tajribasida innovatsion tadbirkorlik, innovatsion faoliyat ko'p qirrali tashkiliy shakllarni namoyon etadi. Ular o'rtasida keng tarqalganlari quyidagilar:

- yuz kishigacha odamlari bo'lgan mayda korxonalar va yillik ishlab chiqarish innovatsion mahsulot AQSh dollarida besh milliongacha;

- o'rtacha innovatsion korxonalar – bandlik yuzdan minggacha odam va yillik daromad AQSh dollarida besh mln.dan ellik mln.gacha;

- yuqori korxonalar – bandlik mingdan oshiq va ishlab chiqarish xajmi ellik mln.dan ortiq AQSh dollari.

Innovatsion tadbirkorlik doimiy ravishda o'zgarishni, yangi g'oya, yangi tovar modifikatsiyasi va boshqa yangiliklarni joriy qiluvchi tashkiliy formalarni joriy qilishni nazarda tutadi.

Innovatsion tadbirkorlik faoliyati uchun kichik korxonalarda yaratilgan yangilikni tijorat maqsadida ishlata oladigan bilim va intuitsiyaga ega bo'lgan mutaxassis lozim.

Kichik korxonalarda innovatsion tadbirkorlik faoliyati ustunliklari quyidagilardan iborat:

- yangilikka yaratishdan manfaatdorlikning yuqoriligi;
- tor doirada (aniq yunalishda) ilmiy izlanishlarni olib borilishi;
- barcha intellektual resurslarni yakuniy maxsulot ishlab chiqarishga yonaltirish imkonini mavjudligi;
- katta korxonalar amalga oshira olmaydigan “risk”i yuqori bolgan ishlar olib borilishi.

Innovatsion tadbirkorlik uchun biznes muxit asosiy xisoblanadi, chunki yangiliklarni kashf etish va uni amaliyotga tadbiiq qilish etarli tadbirkorlik muxitini talab qiladi.

Tadbirkorlik muxiti – bu biror bir maqsadga yo`naltirilgan izlanish(tadqiqot) olib borish va uni amalga tadbiiq qilish uchun sharoit yaratib beruvchi muqitdir.

Bunday muxitning asosiy elementlarini bozorda erkin xarakatlanuvchi, o`z moliyaviy mablag`iga ega bo`lgan investorlar, raqobatbardosh tovar ishlab chiqaruvchilar va ularga xizmat qiluvchi bozor infratuzilmalari tashkil qiladi. Iqtisodiyotda bunday bozor muhitini yaratish - xozirgi kundagi mamlakatimiz oldida turgan asosiy vazifalardan biridir.

Kichik biznes kafolatlarini mustaqkamlash, uning rivoji uchun qulay muqit yaratish maqsadida davlat boshqaruv idoralari va bozor institutlarida ma'muriy

protseduralarni bajarish bilan bog`liq, ancha yuqori darajada bo`lib turgan biznes xarajatlarini kamaytirish lozim. Biznes muhit mamlakatimizda vujudga kelayotgan innovatsion tadbirkorlikni asosini tashkil etadi.

Innovatsion tadbirkorlikning tashkiliy – huquqiy asoslari turlichadir. Bozor iqtisodiyoti rivojlangan davlatlarda katta risk (tavakkalchilik) bilan ishlaydigan maxsus venchur firmalari mavjud bo`lib, ular yangi tovar va xizmatlar yaratish ustida tadqiqotlar olib boradilar.

Venchur firma asoschilari – injener, olimlar o`z tadqiqot natijalarini eksperiment, patent va kommutant firmalarga topshiradilar.

Innovatsion tadbirkorlikning yana bir territorial tashkiliy turi - ilmiy texnologik park (texnopark) lar bo`lib, bu struktura innovatsion biznes maxsulotini ishlab chiqarish va bozorda sotishni tashkil qilishga yordam beradi va shu orqali kichik biznesda innovatsion faoliyatni rivojlantirishga yordam beradi.

Biznes inkubatorlar – kichik kichik innovatsion korxonalar faoliyat korsatishi uchun sharoit yaratuvchi strukturadir. Biznes inkubatorlar bir qancha funktsiyalarni bajaradilar:

-kichik biznes korxonalariga imtiyozli shartlarda asbob-uskunalar etkazib beradilar, xuquqiy maslahat va axborot xizmatlarini ko`rsatadilar;

- ilmiy texnologiyalarni tijorat asosida sotadilar;

- tadbirkorlarning malakasini oshiradilar va boshqalar.

Oqilona investitsiya siyosatini yuritishda davlat tomonidan innovatsion tadbirkorlikka sarmoya qo`yishning o`ziga xos afzalliklari mavjud. Saloxiyatli sarmoyadorlarning erkin pul mablag`larini jalb etishida eng muxim iqtisodiy instrument fond bozoridir. Aktsiyalar likvidligi, firmaning reklama-axborot faoliyati, valyuta maydonchasida sotuvga qo`yilgan aktsiyalar xarakatining taxlili va aktsiyalar paketini chet el investorlariga sotish fond bozori xolatining yanada yaxshilanishiga xizmat qiladi.

Innovatsion biznes bo`yicha faoliyat yuritadigan tadbirkorlar va investorlarning daromadi, investitsiya korxonalarini aktivlarining bozor qiymati o`shishiga belgilangan soliq stavkasiga, ya'ni fond bozorida sotiladigan qimmatli

qog`ozlarning sotuv qiymatiga o`rnatiladigan soliq stavkasiga bog`liqdir. Soliq stavkasi innovatsiya korxonalarini moliyalashtirish tavakkalchiligi darajasini oshiruvchi yoki kamaytiruvchi omil xisoblanadi. Shuning uchun xam qimmatli qog`ozlar bilan amalga oshiriladigan operatsiyalarda dividendlardan, qimmatli qog`ozlarni sotib olishdan undiriladigan soliq, shuningdek, tarkibiga qimmatli qog`ozlar qiymati kiritilgan korxonalar mulkidan olinadigan soliq, kabi undiriladigan turli xil qayta-qayta soliqarga yo`l qoymaslik lozim. Soliq solishng bu kabi amaliyoti natijasida ishbilarmonlik faolligi pasayadi, ya'ni innovatsion korxonalar tashkil topishi sur'atlari qisqaradi, oqibatda xozirgi kunda korxonalarining faoliyat yuritish imkoniyatlari kamayib boradi. Soliq yukining pasayishi innovatsion tadbirkorlikka qamda iqtisodiyotning xususiy sektoriga investitsiyalar jalb qilishda ikkilamchi kapital (qimmatli qogozlar bozori)ning axamiyatini oshiradi.

## **1.2. Innovatsion tadbirkorlikning asosiy tamoyillar va vazifalari**

Yangi g`oyalarni izlash va ularni tatbiq etish tadbirkorlikning eng muhim va shu bilan birga eng murakkab vazifasidir, chunki, bu holda tadbirkordan nafaqat ijodiy fikrlash va yangi echimlarni topish, balki istiqbolli fikrlash, kelajakdagi jamiyatning ehtiyojlarini ko`ra olish xususiyatini ham talab etadi. Innovatsiya – tadbirkorlikning alohida quroli, tadbirkor ona fikrlash innovatsion ko`rinishidir.

Shuni ta`kidlash lozimki, har qanday innovatsion faoliyat tadbirkorlikdir, zero, u yangi g`oyalarni izlash (va ularni baholashga yangi mahsulotdan tortib to tarkibga qadar); zarur resurslarni izlash; korxonani yaratish va boshqarish; moddiy daromad olish va uning natijasidan shaxsan qoniqishga asoslanadi.

Ammo har qanday tadbirkorlik ham innovatsion bo`la olmaydi, faqatgina yaratilish natijasida tadbirkorlik daromadini, innovatsion mahsulotning diffuziyasini ishlatishga imkoniyat beruvchilarnigina innovatsiya deyish mumkin. Innovatsion faoliyatni amalga oshiruvchi tashkilotlar innovatsion tadbirkorlik subyektlari hisoblanadi.

Shunga ko`ra tadbirkorlikning ikki modeli ajratib ko`rsatiladi. Birinchi model

– tadbirkorlik tashkiloti tasarrufida mavjud resurslardan maksimal qaytarish hisobi bilan faoliyatni tashkil etishga qaratilgan klassik tadbirkorlik (an’anaviy, sermahsul, eskirib qolgan).

Tadbirkorlikning aynan klassik modelida ishlab chiqarishning o’sish kontseptsiyasi shakllantiriladi, uning tatbiq etilishi davlat tomonidan qo’llab-quvvatlashni, tadbirkorlik firmasi uchun tashqi subsidiyalashtirish omillari hisobiga o’tkaziladigan tadbirlar uchun vaqt talab etadi. Bundan tashqari, firma faoliyati samaradorligini oshirish uchun uning ichki zaxiralari ham foydalaniladi.

Ikkinchi model – korxonalar rivojlanishining yangi yo’llarini nazarda tutuvchi, innovatsiyalar yoki o’sish kontseptsiyasi haqida gapirishga imkon beruvchi innovatsion tadbirkorlikdir. Innovatsion tadbirkorlik butunlay innovatsiyaga asoslangan, shuning uchun bunday faoliyat natijasi yangi mahsulot yoki asosan yangi tavsiflar va xususiyatlarga ega bo’lgan yangi mahsulot yoki yangi texnologiyalar bo’lishi mumkin.

Odatda, har qanday shakldagi tadbirkorlik faoliyati o’z ichiga kichik innovatsion fursatni oladi, masalan, ishlab chiqarishni boshqarish uchun tashkilotdan sifatli mahsulot ishlab chiqarishni tashkil etishning yangi usullarini joriy qilish yoki yangi texnologiyadan foydalanish. Bozorga an’anaviy mahsulotlarni ishlab chiqarish yoki olib chiqish, shuningdek, ishlab chiqarishni tashkil etish, ishlab chiqarishning texnik elementlari yoki ishlab chiqarishdan tovar sifati tavsifi o’zgarishi bilan bog’liq qandaydir yangi elementlari yoki usullarini qo’llash bilan ham amalga oshirilishi mumkin.

Innovatsion tadbirkorlikning rivojlanish zarurati quyidagi omillar bilan shartlanadi:

- iqtisodiy faoliyatning barcha sohalarida innovatsiyalarni qo’llashga ko’maklashuvchi ishlab chiqarishning intensiv omili rolini oshirish;
- ishlab chiqish samaradorligini ko’tarishda fanning muhim roli va yangi texnikani joriy etish;
- yaratish muddatlarini sezilarli qisqartirish zarurati, yangi texnikani o’zlashtirish, ishlab chiqarishning texnik darajasini ko’tarish, ixtirochi va

ratsionalizatorlar ijodini ommaviy rivojlantirish zarurati;

– natijalarning noaniqligi, tadqiqotlarning ko'pvariantlilik, tavakkalchilikning mavjudligi va salbiy natijalarga erishish mumkinligi bilan ifodalanuvchi ilmiy-texnikaviy ishlab chiqarish jarayonining o'ziga xosligi;

– sarf-xarajat ortishi va yangi mahsulotni o'zlashtirishda korxonalarining iqtisodiy ko'rsatkichlari pasayishida; texnika va texnologiyaning shiddatli ma'naviy eskirishida; yangi texnika va texnologiyani tezkor tatbiq etishning ob'ektiv zarurati bilan va h.k.

Innovatsion tadbirkorlikning rivojlanishi iste'molchilar tomonidan innovatsiyalarga, milliy iqtisodiyotning ilmiy-texnik salohiyati rivojlanishi, tavakkal innovatsion faoliyatni moliyalashtiruvchi venchur firma va investorlar faoliyatiga bog'liq.

1-jadvalda innovatsion tadbirkorlikning rivojlanishiga ta'sir etuvchi omillar keltirilgan.

Innovatsion tadbirkorlik – g'oya va ixtirolardan amaliy foydalanish orqali yangi tovar va texnologiyalar yaratish jarayoni hisoblanadi. Odatda, tadbirkorlik faoliyati zamirida yangi ehtiyojlarni qondirishga imkon beruvchi, yangi bozorni barpo etish, mahsulot yoki xizmatlar sohasiga yangilik kiritishdir. Innovatsiyalar – tadbirkorlikning maxsus quroli bo'lib, bunda innovatsiyalar o'z holicha emas, balki yangiliklarni yo'naltirilgan tashkiliy izlash, ularga tadbirkorlik tarkiblarining muntazam qaratilganligidir. Tadbirkorlar fikrlashning innovatsion turini farqlaydi, innovatsion faoliyat esa o'zida tadbirkorlikning alohida qurolini aks ettiradi.

Shunday qilib, tadbirkor-novatorning vazifasi – ixtirolarni tatbiq etish bilan birga ishlab chiqarishni isloh qilishdir, yanada kengroq ma'noda yangi texnologik imkoniyatlarni qo'llash orqali yangi mahsulotlarni ishlab chiqarish yoki tayyor mahsulot bozori ochilishi yoki yangi manbaning ochilishi evaziga eski mahsulotlarni yangi uslubda ishlab chiqarishdan iborat.

Innovatsion tadbirkorlik – yangilik yaratishning alohida ijodkorlik jarayonidir, xo'jalik jarayoni, uning zamirida muntazam yangi imkoniyatlarni izlash, innovatsiyalarga yo'naltirilganlik yotadi. Bu mavjud loyihani



takomillashtirish yoki yangisini amalga oshirishdagi tavakkalchilikni, shuningdek, bu jarayonda yuzaga keladigan moliyaviy, ma'naviy va ijtimoiy javobgarlikni tadbirkor o'z zimmasiga olishga tayyorligi bilan bog'liq. Innovatsion tadbirkorlik jarayonida o'z xususiyatlariga ko'ra innovatsiyalar orqali yangilik kiritish amaliy foydalanish orqali (mahsulot va xizmatlar, oliy mahsulotlar) va texnologiyalar vositasida ishlab chiqariladi.

## 1-jadval

### Innovatsion tadbirkorlikni rivojlantirishga ko'maklashuvchi omillar.<sup>2</sup>

Omillar guruhi	Omillar
<b>Iqtisodiy, texnologik</b>	Moliyaviy, moddiy-texnika vositalari zaxirasi, ilg'or texnologiyalar; zarur xo'jalik va ilmiy-texnik infratuzilma, innovatsion faoliyatni moliyalashtiruvchi davlat dasturi; innovatsion faoliyat Uchun moddiy rag'batlantirish; innovatsiyalarni tatbiq etish va ko'paytirishning maqsadga muvofiqligini eksperimental tekshiruv, tadbirkorlik tavakkalchiligini kamaytirish uchun yangilikning raqobatbardoshligini tekshirish
<b>Siyosiy, huquqiy</b>	Innovatsion faoliyatni rag'batlantiruvchi qonunchilik choralari, innovatsion faoliyatning davlat tomonidan qo'llanilishi
<b>Boshqaruv-tashkilot</b>	Tashkiliy tarkiblarning egiluvchanligi, boshqaruvning demokratik uslubi, axborotning gorizontaal yo'nalishi, ustuvorligi o'z-o'zini rejalashtirish, tuzatishlarni kiritish, nomarkazlashtirish, avtonomiya, muammoli, maqsadli guruxlarni shakllantirish, reinjining
<b>Ijtimoiy-psixologik va madaniy</b>	Ma'naviy rag'batlantirish, jamoatchilikda tan olinish, o'zini namo'èn etish imkoniyatini ta'minlash, ijodiy mehnat erkinligi. Mehnat jamoasida me'èriy ruhiy muhit

Innovatsiya yoki yangilik kiritish yangi jarayon, yangi vositani mahsulot jarayonini (texnik, iqtisodiy, tashkiliy, madaniy va b.) yaratish va foydalanish. Faoliyat vositalari mahsulot va uslublarni takomillashtiruvchi radikal yangilik va yangiliklarni ajratadi.

<sup>2</sup> [www.jizzax.uz](http://www.jizzax.uz) sayti

Innovatsion tadbirkorlikning aynan uch asosiy turi mavjud bo'lib, quyidagilarga qaratilgan:

- mahsulotlarning innovatsiyalari;
- texnologiya innovatsiyalari;
- ijtimoiy innovatsiyalar.

Innovatsion tadbirkorlikning birinchi turi mos ravishda korxonaning sotish salohiyatini yangilash, mo'ljallangan jarayoni, o'z navbatida, olinadigan foyda hajmini ko'paytirish, bozordagi ulushining kengaytirilishi, mijozlarni ushlab turish, mustaqil holatni mustahkamlash, nufuzini oshirish, yangi ish joylarini yaratishga qaratilgan.

Texnologik innovatsiyalar – energiya, ishlab chiqarish salohiyatini yangilash jarayoni bo'lib, tejash va mehnat unumdorligini oshirishga va energiya xomashyosi va boshqa resurslarni oshirishga qaratilgan, bu korxonada foyda hajmini oshirishga imkon beradi. Texnika xavfsizligini takomillashtirish, atrof-muhitni muhofaza qilish tadbirlarini o'tkazish, firma ichki axborot tizimlaridan samarali foydalanish imkoniyatini beradi.

Innovatsion jarayonni tashkil etish usuli asosida korxonada innovatsion tadbirkorlikning uch modelini alohida ko'rsatish mumkin:

1) ichki tashkilotchilik asosida innovatsion tadbirkorlik, bunda innovatsiya firma ichida uning maxsus bo'linmalari tomonidan innovatsion loyiha bo'yicha ularning rejalashtirish va nazorat asosida o'zaro harakatida yaratiladi.


2) shartnomalar yordamida tashqi tashkilot asosida innovatsion tadbirkorlik, bunda va/yoki o'zlashtirishga buyurtma, innovatsiya tarafdor tashkilotlar o'rtasida joylashtiriladi.

3) venchurlar yordamida tashqi tashkilot asosida innovatsion tadbirkorlik, bunda firma innovatsion loyihaning tatbiqi uchun qo'shimcha tomonlarning mablag'larini jalb etuvchi shu'ba venchurlik firmalarini ta'sis etadi.

Ko'p hollarda innovatsion tadbirkorlikning ikkinchi modeli foydalaniladi, ya'ni korxonada yangiliklarni ishlab chiqishga buyurtma bermaydi, balki ularni o'z kuchi bilan o'zlashtiradi.

Innovatsion tadbirkorlikning barcha turlari asosida mahsulot (tovar, xizmat)larning yangi turlarini tayyorlash, buyumlar yaratish, boyliklarni yaxshiliklarga yaratish va o'zlashtirish yotadi. Bunday tadbirkorlikning asosiy va muhim qismi kelgusida iste'molchi va xaridorlarga etkazib beriladigan ilmiy-texnik mahsulot, tovar, ish, axborot, intellektual boylik yaratish va ishlab chiqarishdir. Innovatsion tadbirkorlikning namunaviy sxemasi 1-rasmda keltirilgan.

Tadbirkorga yangi turdagi mahsulot (tovar, xizmat)larni ishlab chiqarish va o'zlashtirish uchun ilmiy-texnik mahsulot yaratish jarayonida ishlatiladigan, materiallarni qayta ishlash uchun energiya va boshqa ko'rinishdagi aylanma mablag' kerak bo'ladi. Bundan tashqari, ilmiy-texnik mahsulot ishlab chiqarishda foydalanishi mumkin bo'lgan jamlovchi mahsulotlarga, yarimfabrikatlarga, ya'ni tayyor tarkibiy qismlarga ehtiyoj yuzaga kelishi mumkin. Zarur materiallar, xomashyo va jamlovchi mahsulotlarni (M) korxonaga material soni va uning bahosidan kelib chiqqan holda, ularning qiymatini to'lab, aylanma mablag' egalaridan sotib oladi.



**1-rasm. Innovatsion tadbirkorlikning namunaviy sxemasi.<sup>3</sup>**

Ilmiy-texnik mahsulot (tovar, xizmat)lar ishlab chiqarish uchun korxonaga, shuningdek, inshoot ko'rinishida asosiy vositalar, bino, maxsus asbob-uskuna,

<sup>3</sup> [www.jizzax.uz](http://www.jizzax.uz) sayti

asbob va boshqalar zarur. Tashkilot ularni sotib olishi yoki asosiy vosita egalaridan ma'lum vaqtga ijaraga olishi mumkin. Innovatsion faoliyatga zarur bo'lgan narsalar uchun mulkdorlarga pul miqdorini to'lashi lozim, pul miqdori asosiy vositalarning turi, soni va bahosiga bog'liq. Asosiy vositalarning ijarasida to'lov uning ishlatilish muddatiga bog'liq bo'ladi.

Innovatsion tadbirkorlikni amalga oshirish uchun tashkilot ma'lum pul resurslarini (DB) sarflagan holda, shuningdek, ilmiy-texnik kadrlarni, ishlab chiqarish xodimi, ya'ni ishchi kuchini (RS-I) jalb qilishi zarur.

Agar korxonaga o'zining pul mablag'lariga ega bo'lmasa yoki innovatsion faoliyatni amalga oshirish uchun ular etarli miqdorda bo'lmasa, bunda mablag' keyingi to'lov va foizli kredit (Dk) asosida korxonaga tomonidan kommertsiya banklaridan olinishi mumkin.

Bundan tashqari, pulli asosda o'z vaqtida zarur axborot (Di) olmay turib innovatsion tadbirkorlik bo'lishi mumkin emas.

Korxonaga innovatsion faoliyatni tatbiq qilishda zarur bo'lgan ayrim ish va xizmatlarni bajarish uchun buyurtmalarni pulli asosda talabgor tashkilotlarda joylashtirishi mumkin (Du).

Innovatsion tadbirkorlikni amalga oshirish uchun zarur pul mablag'lariga ehtiyoj mos ravishda quyidagi formula orqali baholanadi:

$$D = D_m + D_o + D_r + D_i + D_k + D_u$$

Bunda:  $D_m$  – materiallar, xomashyo, energiya, yarim tayyor mahsulotlar sotib olish uchun zaruriy pul mablag'lari;

$D_o$  – asosiy fond, mehnat vositalari, binolardan foydalanish bilan bog'liq xarajatlar;

$D_r$  – yollangan ishchilarga ish haqi uchun zarur pul mablag'lari;  $D_i$  – qo'shimcha axborot olish uchun zarur pul mablag'lari;

$D_k$  – kredit mablag'lardan foydalanilganlik uchun to'lanadigan pul mablag'lari;

Du – tarafdor tashkilot va shaxslarning xizmatlari to'lovi.

Innovatsion tadbirkorlikning natijasi sifatida tayyor tovar (mahsulot) yuzaga keladi. Uni korxonaga, innovatsion mahsulot iste'molchisi korxonaga va innovatsion faoliyatni amalga oshirishdagi sarf-xarajatlarga va daromadini o'z ichiga olgan narxda (D+P) sotadi.

Shunday qilib, innovatsion tadbirkorlik xo'jalik yuritishning alohida ijodkorlik jarayoni bo'lib, uning asosida yangi imkoniyatlarni muntazam izlash, innovatsiyaga yo'naltirilganlik, turli-tuman manbalardan doimiy masalalarni hal etish uchun resurslar izlashni uddalash va ulardan foydalanish demakdir. U tadbirkorning mavjud loyihani yaxshilash yoki yangisini tatbiq etish bilan bog'liq barcha tavakkalchilikni o'z zimmasiga ko'ngilli ravishda olishga tayyorligi, moddiy daromad olib keladigan jarayon uchun moliyaviy, ma'naviy va ijtimoiy javobgarlikni o'ziga olishi va bundan o'zi ham qoniqish hosil qilishi bilan tavsiflanadi. Innovatsion tadbirkorlik – tadbirkorlik faoliyati barcha jabhalarining asosidir.

### **1.3. Innovatsion tadbirkorlikni tashkil etish asoslari**

Iqtisodiyotni liberallashtirish jarayonida uning muvaffaqiyati va sharoitini yaxshilashning eng muhim shartlaridan biri innovatsion tadbirkorlik va tadbirkorlik faoliyati usuli bo'lib qoldi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov "...Biz ta'lim tizimida o'quvchilarning nafaqat keng bilim va professional ko'nikmalarni egallashi, ayni paytda chet mamlakatlardagi tengdoshlari bilan faol muloqot qilish, bugungi dunyoda ro'y berayotgan barcha voqea-xodisalar, yangilik va o'zgarishlardan atroflicha xabardor bo'lish, jaxondagi ulkan intellektual boylikni egallashning eng muxim sharti xisoblangan xorijiy tillarni xam chuqur o'rganishlari uchun katta axamiyat bermoqdamiz"<sup>4</sup> deb, respublikamizda bugungi kunda ta'lim sohasida

---

<sup>4</sup> Karimov I.A. "Yuksak bilimli va intellektual rivojlangan avlodni tarbiyalash – mamlakatni barqaror taraqqiy etirish va modernizatsiya qilishning eng muxim sharti" mavzusidagi xalqaro konferentsiyaning ochilish marosimidagi nutqi. Halq so'zi 2012 yil 17 fevral.

amalgaga oshirilishi zarur bo'lgan masalalar, jahon moliyaviy inqirozi, uning ta'siri va salbiy oqibatlari, yuzaga kelayotgan vaziyatdan chiqish yo'llari haqida to'xtalib, bu jarayonda oliy ta'lim tizimini isloh qilish, ta'limda yangi pedagogik va innovatsion texnologiyalardan keng foydalanish zarurligini ta'kidlaydi.

Innovatsion tadbirkorlik – bir paytning o'zida ham iqtisodiy holat, ham jarayondir. Iqtisodiy holat sifatida tadbirkorlik iste'molchilarga ma'lum tavsiflarni (ish xizmat), zarur natijani olish bo'yicha ishlab chiqarish va sotish, ishlab chiqarish munosabatlarining shakli sifatida namoyon bo'ladi. Iqtisodiy holat sifatida tovar (ish, xizmat) sotish jarayonida iste'molchilar

bilan, mahsulot etkazib beruvchilar va boshqa xo'jalik yurituvchi subyektlar, yollangan ishchilar va nihoyat, davlat va boshqa boshqaruv tashkilotlari bilan o'zaro muomalada yuzaga keladigan munosabatlarning barcha tizimini o'zida aks ettiradi.


Tadbirkorlik jarayon sifatida harakatlarning – tadbirkorlik g'oyasini izlash (tug'ilishi)dan boshlab, tashkilotning iste'molchilar uchun zarur mahsulot ishlab chiqarishga imkon beradigan aniq loyihasiga aylanishiga qadar murakkab zanjirni o'zida aks ettiradi. Ushbu jarayon foydaning ma'lum hajmini qo'lga kiritish bilan nihoyalanadi. Shunga ko'ra tadbirkorlik jarayon sifatida to'rt asosiy bosqichni o'z ichiga oladi:

- yangi g'oyalar izlash va ularni baholash;
- batafsil biznes-reja tuzish;
- zarur resurslarni izlash;
- yaratilgan korxonani boshqarish.

Innovatsion tadbirkorlik tadbirkorlikning alohida turi bo'lganligi sababli, uning uchun bu to'rt bosqichni yanada bo'laklarga bo'lish lozim (2-rasm).

Shuni ta'kidlash lozimki, sanab o'tilgan bosqichlar Shuni ta'kidlash lozimki, sanab o'tilgan bosqichlar doim ham ketma-ketlikda amalga oshirilmaydi, ayrim bosqichlar ko'pincha parallel ravishda amalga oshiriladi va bu innovatsion faoliyat jarayonini tezlashtiradi. Darhaqiqat, biznes-rejani ishlab chiqarish bilan birga g'oyalar tanlanadi va baholanadi, shu vaqtning o'zida yaratilayotgan innovatsion

tashkilot davlat ro'yxatidan o'tkazilishi va patent olish uchun talabnoma berilishi mumkin. Innovatsion tadbirkorlik uchun yangi g'oyalarni izlash va yaratilayotgan intellektual mahsulotni himoya qilish kabi bosqichlari aynan muhim ahamiyat kasb etadi.



**2-rasm. Innovatsion tadbirkorlik bosqichlari.<sup>5</sup>**

Tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish har doim qandaydir aniq g'oyalarga asoslanadi. Faollik va jur'atga asoslangan tadbirkorlik g'oyasi, shaxsan tadbirkorning innovatsion tashabbusi har bir qismigacha puxta o'ylangan bo'lib, nafaqat ishlab chiqarish jarayonini butunlay qamrab oladi, balki uning bir yoki bir necha alohida qismlarini ham qamrab olishi mumkin. Tadbirkorlik g'oyasining aynan fragmentar shakliga diqqatimizni qaratib, g'oyani tatbiq etish mumkin bo'lgan tadbirkor faoliyatidagi asosiy yo'nalishlarini ajratib ko'rsatib o'tamiz:

<sup>5</sup> [www.jizzax.uz](http://www.jizzax.uz) sayti

- ishlab chiqarish boshqarish tizimining o'zgartirilishi;
- yangi texnika yoki texnologiyani qo'llash;
- tovar ishlab chiqarishda yangi, yanada tejamkor yoki mustahkam materialdan foydalanish;
- mahsulot o'rami, dizaynini yaxshilash;
- korxonaning reklama kampaniyasini tashkil etish sxemasining yangilanishi va h.k.

Lekin tadbirkorlik firmasining innovatsion faoliyat xarakteri nafaqat ishlab chiqarish omillariga nisbatan, ishlab chiqarish jarayoni o'zini tashkil etish yoki mahsulotning o'zida namoyon bo'lmay, balki ishlab chiqarish jarayonida ishtirok etayotgan odamlar faoliyatini tashkil etishga nisbatan ham namoyon bo'lishi mumkin. Bu hollarda tadbirkorlik g'oyasi quyidagi harakatlarda asoslanishi mumkin:

- “malakasi etarli bo'lmagan ishchilarni bo'shatish” maqsadida ishlab chiqarish jarayonida ishtirok etuvchilarni qisman yoki butunlay almashtirish;
- ushbu maqsadlarga jalb etish shartlari va manfaatlari hisobiga ishlaydigan jamoada “o'ziga xos ruhiyat”ni yaratish;
- har bir ishchi tomonidan o'z ish vaqtidan unumli foydalanish choralarini qabul qilish va h.k.

Shunday qilib, innovatsion g'oyani noyob mahsulot, tovar, xizmat yoki ularning yaxshilangan variantlari yoki modifikatsiyalarini, shuningdek, yangi nusxalarini ishlab chiqarish kabi real mavjud imkoniyat deb belgilashimiz mumkin. Tadbirkor o'zi uchun, shuningdek, unga qandaydir ma'lum innovatsion g'oyani topishga ko'mak beruvchi axborot manbalarini alohida ajratishi muhim. Bunday manbalar bozor va bozor ehtiyojlari haqidagi aniq bilimlar, yangi texnologiya, materiallar, ishlab chiqarish uslublarining paydo bo'lishi, ta'minotdagi ma'lum mahsulotga ehtiyojning tarkibiy yoki geografik uzilishlari bo'lishi, innovatsion g'oyalarning aniq manbalari sifatida namoyon bo'lishi mumkin:

- iste'molchilar, ya'ni iste'mol talabini o'rganish;



– mahsulot, xizmatning takomillashtirilgan yoki noyob variantlarini yaratishga imkon beruvchi, yangi material, tovar xususiyatlari yoki ixtirochilik bilan mashg'ul bo'lgan olimlar;

– raqobatchilar, ayrim hollarda iste'mol talabini o'rganishga qaratilgan ularning faoliyati, tadbirkorni o'zining shaxsiy innovatsion g'oyasini shakllantirishga turtki bo'lishi;

– savdo agentlari, dilerlar va boshqa vositalar;

– innovatsion faoliyatning ma'lum elementlari bo'yicha tadbirkorning maslahatchilari;

– bevosita tashkilotning ishchilari.

Ayrim firmalarda innovatsion g'oyalar manbai sifatida aynan korxonada xodimlaridan faol foydalanadilar, buning uchun yangi tovarlarni ishlab chiqarish bo'yicha rag'batlantirishning alohida usullarini qo'llaydilar.

Innovatsion g'oyalar manbalarini ko'rsatishda etti manba namoyon etildi:

1) kutilmagan hodisa (tashkilot yoki tarmoq uchun – kutilmagan muvaffaqiyat, kutilmagan muvaffaqiyatsizlik, kutilmagan tashqi hodisa);

2) nokongruentlik – reallik o'rtasida nomuvofiqlik, haqiqatda qanday bo'lsa, u haqidagi tasavvurimiz ( shunday, qanday bo'lishi kerak bo'lganday);

3) jarayon ehtiyojlariga asoslangan yangiliklar kiritish (jarayon ehtiyojlarida uning kamchiliklari va “salbiy joylari” nazarda tutilib, ular bartaraf etilishi mumkin va shart);

4) bozor yoki soha tarkibidagi keskin o'zgarishlar;

5) demografik o'zgarishlar;

6) qabul qilish, kayfiyat va qimmatli ko'rsatmalarda o'zgarishlar;

7) yangi bilimlar (ilmiy kabi noilmiy ham).

Birinchi to'rt manba korxonada ichida bo'lib, sanoat tarmoqlari yoki xizmat ko'rsatish sohasi tasarrufida bo'lganligi sababli ichki manbalarga kiradi, shuning uchun shu korxonada yoki tarmoqda ishlovchi odamlar uchun foydalanish imkoniyatiga ega. Yangilik kiritishning qolgan uch manbai tashqi hisoblanadi, chunki korxonada yoki tarmoq tashqarisida joylashgan mazkur korxonada harakati

natijasida yuzaga kelgan. Ammo ushbu etti innovatsion g'oya orasidagi chegara muqim emas va o'zaro almashinishi mumkin, lekin bunda barcha etti manba muhim va samarasidir.

Shuni ta'kidlash kerakki, sohalarning birontasi boshqalariga ko'ra birlamchi juda muhim bo'lmasa-da, ular oldindan aytib berish va tahlil qilishning aniqligi pasayib borishi tartibi bo'yicha joylashtiriladi.

Bironta soha ularga birinchi ajratib ko'rsatiladigan manba, muvaffaqiyatli innovatsiya uchun kutilmagan yutuq kabi katta imkoniyatni bermaydi.

Yangilik kiritishga imkon beruvchi vazifa shunday: tashkilotdagi har kim zaif bo'g'in mavjudligini biladi, lekin hech kim chora ko'rmaydi. Lekin, yangilik kiritilishi bilan u ma'lum narsa kabi qabul qilinadi va tezda me'yorga aylanadi. Bu manbani ishlatishdagi muhim daqiqa, aytilayotgan ehtiyojni qondirish uchun yangi bilimlar olish zaruratidir.

Kompaniya yoki soha uchun yangilik kiritishning eng so'nggisi bozor yoki tarmoq taraqqiylik o'zgarishi hisoblanadi. Ushbu tarkib ko'p yillar davomida o'zgarishsiz qolishi va muqim yangilik ko'rinishida bo'lishi mumkin, haqiqatda u "zaif" bo'ladi. Soha tarkibidagi kutilayotgan o'zgarishning tavsifli belgilari tezkor rivojlanish va texnologiyalarning uyg'unlashuvi.

Innovatsion g'oyalarning eng muhim manbalaridan biri – demografik o'zgarishlardir (aholi tarkibidagi, jins va yosh tizimidagi, ish bilan bandligi, ma'lumot darajasidagi daromadi). Ushbu o'zgarishlarning muhimligi, ularni hisobga olish zarurati tan olingan, lekin, shu bilan birga, ushbu o'zgarishlarni kundalik ish amaliyotida hisobga olish muhim emas, degan qat'iy fikr ham mavjud. Demografik o'zgarishlarni oldindan bashorat qilib bo'lmaslik mumkin, ammo ularni idrok etish va ularni qo'llash orasidagi muddat ancha katta, bu esa ularni nazarda tutish lozimligini taqozo etadi. Ular aynan kundalik ish amaliyotida hisobga olinmaganligi bilan innovatsion tadbirkorlik uchun muhimdir.

Innovatsionlikning navbatdagi muhim manbai zehn va qimmatli ko'rsatmalarning o'zgarishidir. Agar qabul qilish birinchi ta'kidlashdan ikkinchisiga qadar o'zgarsa, yangilik kiritish uchun real imkoniyatdir. Kutilmagan

yutuq yoki muvaffaqiyatsizlik, odatda, kayfiyat o'zgarishini bildiradi. Bunday o'zgarish yuz bergan hollarda, faktlar o'zgarmaydi, balki ularga munosabat o'zgaradi.

Yangi bilimlarga asoslangan yangiliklar o'zining asosiy tavsiflari bilan boshqa yangiliklardan farq qiladi: vaqtni qamrab olish, muvaffaqiyatsizlikni oldindan bashorat qilish va tadbirkorga bo'lgan talab darajasi.

Innovatsion g'oyalar shakllantirilganidan so'ng tadbirkor kelgusidagi ustuvor g'oyalarni tanlab oladi. Bunda u nafaqat ushbu loyihaning zarurligini, balki uning amalga oshishi qanchalik aniq ekanligini ham hisobga olishi kerak, chunki mablag', zarur malaka bo'lmasa yoki hal qilib bo'lmaydigan to'siqlar yuzaga kelsa, yaxshi innovatsion g'oya ham amalga oshmasligi mumkin. Shuning uchun tadbirkorlik firmasi biron innovatsiyani tatbiq qilishidan oldin, birinchidan, biror mahsulot bozorda yaxshi imkonga ega yoki ega emasligini aniqlashi lozim (agar gap mahsulot innovatsiyasi haqida borsa), ikkinchidan, innovatsion g'oya bilan bog'liq so'nggi qarorni qabul qilishda, shuningdek, konstruktor-tadqiqodchilik ishlari bilan bog'liq ishlarda quyidagilarni nazarda tutishi lozim:

- loyihadan tushgan foyda uni ishlab chiqarishdan ko'ra ancha yuqori bo'lishi;

- loyihani sotishdan tushgan daromad bilan loyihaga oid tavakkalchilik ruxsat etilgan chegara nisbatida bo'lishi lozim.

Bundan tashqari, hatto ilg'or g'oya ham o'z-o'zidan ijodkor korxonaga bozorda avtomatik ravishda yutuqqa kafolat bermaydi. Ko'zlangan maqsadga erishish va innovatsion faoliyatdan monopol yuqori foydaga erishish uchun tadbirkorlik firmasi ayrim shartlarga rioya qilishi va aniq talablarga javob berishi kerak:

1. Salohiyatli iste'molchilarning yangilikka bo'lgan ehtiyoji hajmini, mazkur ehtiyojni qondirishning ma'lum usullarida iqtisodiy ustuvorlikni aniqlab olishi lozim. Bundan tashqari, yangilik kiritish, ishlab chiqarish va yaratishda yuzaga keladigan manbalar chegarasini aniqlash lozim, ya'ni yangilikning iqtisodiy salohiyatining har tomonlama bashoratini to'g'ri tashkil etish lozim.

2. Innovatsion tashkilotning muvaffaqiyatli rivojlanishi uchun korxonaxodimlarining ayrim talablarga mosligi asosiy shart hisoblanadi. Firma tashkilotchilarining yoshi (o'rtacha 30 – 35 yosh) va ularning shaxsiy xususiyatlari muhim ahamiyatga ega bo'ladi: yuqori javobgarligi.

3. Moddiy-moliyaviy resurslarning cheklanganligida va bozorgamoslashmaganlikda innovatsion korxonalarining muvaffaqiyatida boshqaruvni tashkil qilish sifati muhim ahamiyat kasb etadi. Shuning uchun aynan kichik innovatsion tashkilotlar yanada samaralidir. Chunki resurslarni kam ishlatish bilan ham natijaga erishish mumkin bo'ladi.

### **Birinchi bob bo'yicha xulosa**

Birinchi bob bo'yicha xulosa qilib shuni aytish mumkinki, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning innovatsion omili sifatida innovatsion tadbirkorlikning turfa tashkiliy shakllari keng rivojlanmoqda ekan. Shakllarning har xilligi, innovatsion tashkiliy tizim innovatsion faoliyatning asoslarini o'zgartirilgan ko'lamda innovatsiya bilan bog'liq innovatsion loyihalar taklifi doirasini aniqlanadi. Innovatsiyaning tashkiliy shakli yoki innovatsion tashkilotning umumiy yaqinlashuvi alohida korxonaxodimlarining sifati yoki uning bo'limlari, yoki majmuaviy korxonaxodimlarining tarkibiy qism va boshqaruv mexanizmi faoliyatini xususiyatini belgilovchisi sifatida ko'rish mumkin, innovatsiyaning zarurligi asoslangan, innovatsion g'oyalar bazasining paydo bo'lishi, innovatsiyani amalga oshirish maqsadi bilan tashkiliy innovatsion jarayonlar va texnologiyani qo'llash va aniqlashni ta'minlaydi. Zamonaviy innovatsion rivojlanish tajribasi innovatsion tadbirkorlik tashkiliy shaklining har xilligi farqlanar ekan.

Demak, innovatsion tadbirkorlik xo'jalik yuritishning alohida ijodkorlik jarayoni bo'lib, uning asosida yangi imkoniyatlarni muntazam izlash, innovatsiyaga yo'naltirilganlik, turli-tuman manbalardan doimiy masalalarni hal etish uchun resurslar izlashni uddalash va ulardan foydalanish demakdir.

## **II BOB. JIZZAX SHAHAR HOKIMLIGI MOLIYA BO'LIMINING INNOVATSION TADBIRKORLIKNI RIVOJLANTIRISHDAGI O'RNI.**

### **2.1. Jizzax shahar hokimligi Moliya bo'limining tashkil topishi, maqsadi va vazifalari.**

Hammamizga ma'lumki, aholini ijtimoiy himoyalash masalasining ustuvorligi O'zbekiston Respublikasida aholini ijtimoiy jihatdan himoya qilish bozor iqtisodiyotiga o'tish dasturining eng ustuvor yo'nalishi sifatida tan olinadi. O'zbekiston Respublikasining Prezidenti I.A.Karimov tomonidan ilgari surilgan bozor munosabatlariga o'tishning bosh tamoyilidan biri aholini demografik tarkibini hisobga olgan holda kuchli ijtimoiy siyosat yuritish hisoblanadi. Shu sababli mahalliy budjetdan aholining kam ta'minlangan qatlamlariga to'lanayotgan ijtimoiy to'lovlar hajmi oshib bormoqda.

O'zbekiston Respublikasida budjet ijrosining amaldagi holatidan kelib chiqqan holda, mahalliy budjetlar hukumatning iqtisodiy-ijtimoiy siyosatini amalga oshirishda mavqeini yanada ko'tarishga sabab bo'layotgan qator omillarni ajratib ko'rsatish mumkin. Masalan, mahalliy moliya organlarining budjet ijrosidan manfaatdorligini oshirish va shuning asosida budjet xarajatlarini to'g'ri va oqilona tarzda sarflanishi va budjet tushumlarining yangi manbalarni qidirib topish ga rag'batlantirishni ta'minlashdir.

Bugungi kunda mahalliy budjetning huquqiy asoslarini quyidagilar tashkil etadi:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi
2. O'zbekiston Respublikasining "Budjet tizimi to'g'risida"gi Qonuni
3. O'zbekiston Respublikasining Soliq Kodeksi 2004 y O'ZRDSQ 80-bet
4. O'zbekiston Respublikasining "Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida"gi Qonuni
5. O'zbekiston Respublikasining "Buxg'alteriya hisobi to'g'risidagi" Qonuni.
6. O'zbekiston Respublikasi VMning 2002-yil 5-dekabrda 610-sonli "O'zbekiston Respublikasining 2005-yilgi davlat budjeti asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlar to'g'risida"gi qarori

7. "Budjetda ko'zda tutilgan xarajatlarni to'liq va o'z vaqtida moliyalashtirishni ta'minlash va budjet mablag'larining maqsadli ishlatilishi ustidan nazoratni yanada kuchaytirish maqsadida" 2005-yil 2-yanvardagi buyrug'i

8. O'zbekiston Respublikasi Vmning 2005-yil asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlar prognozi va davlat budjeti parametrlari to'g'risidagi 244-son qarori

O'zbekiston Respublikasining 2006-yil 14-dekabrda qabul qilingan «Budjet tizimi to'g'risida»gi qonunning 4-moddasiga budjet tizimiga quyidagicha ta'rif berilgan: «Budjet tizimi turli darajadagi budjetlar va budjet mablag'lari oluvchilar yig'indisini budjetlarni tashkil etishni va tuzish prinsiplarini, budjet jarayonida ular o'rtasida, shuningdek, budjetlar va budjet mablag'lari oluvchilar o'rtasida vujudga keladigan o'zaro munosabatlarni o'zida ifodalaydi.» Jamlangan budjetning ko'rsatkichlari mamlakat markazlashtirilgan moliyaviy fondidan foydalanish va uni shakllantirishni tahlil qilishda muhim rol o'ynaydi.

Mahalliy boshqaruv organlariga yuklatilgan vazifalarni samarali amalga oshirishni ularning moliyaviy mablag'larga ega bo'lishlari bilan bog'liq. Albatta mahalliy boshqaruv organlari faoliyatining asosiy moliyaviy negizi mahalliy budjetlar hisoblanadi. Davlat budjeti tarkibida Respublika budjeti, Qoraqalpog'iston Respublikasi budjeti, viloyatlar, Toshkent shahri budjetlari, davlat maqsadli jamg'armalari jamlanadi.

O'zbekiston Respublikasi budjeti bir butundir, ya'ni budjet tizimi barcha bo'g'inlarga davlatning yagona davlat budjetiga kiradigan Qoraqalpog'iston Respublikasi budjeti, viloyatlar, Toshkent shahri, shahrlar, tumanlar budjetlarining uzviy birligini bildiradi.

Budjet 1-navbatda O'zbekiston Respublikasi iqtisodiy tizimining yahlitligini belgilab beradi. Budjet tizimi butun respublika hududida amal qilayotgan davlat daromadlari hamda umumman Qoraqalpog'iston Respublikasi budjeti, viloyatlar, Toshkent shahri, shahrlar, tumanlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishga yo'naltirilgan davlat xarajatlarning bir butun tizimiga asoslanadi. Budjet yaxlitligi budjetga doir prognozlashtirish uslubiyati va tashkil etish bir bo'g'inligini kafolatlaydi.

Moliya boshqarmasi o'z faoliyatida O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga, O'zbekiston Respublikasi qonunlariga, O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining boshqa qarorlariga, Prezidentning farmonlari, qarorlari va farmoyishlariga, Vazirlar Mahkamasining qarorlari va farmoyishlariga, O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining Nizomga va boshqa me'yoriy aktlarga amal qiladi.

Jizzax viloyat hokimligi moliya boshqarmasi davlat boshqaruvi organi hisoblendi va yagona soliq-budjet siyosatini tashkil etish faoliyatini amalga oshiradi. Jizzax viloyat hokimligi moliya boshqarmasi tizimiga: shahar va tuman hokimliklarining moliya bo'limlari kiradi.

Jizzax viloyat mahalliy budjeti loyhasini tayyorlash, tasdiqlash, uning bajarilishini ta'minlash, mahalliy budjetning bajarilganligi haqidagi hisobotni tayyorlash va moliya vazirligiga taqdim etish.

**Moliya boshqarmasi zimmasiga yuklatigan vazifalarga muvofiq quyidagi ishlarni amalga oshiradi:**

- Iqtisodiyotni rivojlanishi hamda aholi turmush farovonligini oshirish maqsadida soliq siyosati va soliqqa tortish tizimini takomillashtirish yuzasidan takliflar ishlab chiqish va Moliya vazirligiga taqdim etish;

- Budjetga soliq va boshqa tushumlarni, shuningdek davlat mulkini xususiylashtirishdan hamda davlat ulushiga hisoblangan dividendlar tushishi ustidan nazorat olib boradi;


- Berilgan vakolati doirasida budjet mablag'laridan maqsadli va samarali foydalanishi hamda davlat ulushi bo'lgan xo'jalik subyektlarda moliya intizomiga rioya etilishini nazorat qiladi;

O'zbekistonda budjet tizimini isloh qilish mahalliy budjetlarni samarali boshqarishning hozirgi kundagi amaliyoti va nazariyasi oldiga uning yangi muammolariga yechim topishni ko'ndalang qo'ymoqda.

Bilamizki, budjetning mustaqilligi uning asosiy tamoyili sifatida belgilangan bo'lib, bu tamoyil turli darajadagi vakolatli hokimiyat organlariga berilgan vakolatlari doirasida budjet jarayonini mustaqil amalga oshirish huquqlarini

anglatadi. Har bir darajadagi budjet daromadlarining mablag'lari, joylardagi vakolatli hokimyat organlarining qonunlarida belgilangan doiralarda soliqlar va yig'imlar soliq stavkasini o'zgartirish huquqini asosida mustahkamlab qo'yilgan. Daromad manbalari belgilanishi va ular mahalliy budjetga tushushi qonun asosida mustahkamlab qo'yilganligi mahalliy hokimyat organlari mustaqilligi va budjetlarni shaklanishida manfaatdorligini oshiradi.

Hududiy moliya tizimining tarkibiga quyidagi bo'g'inlar kiradi:



**3-rasm. Mahalliy moliyani tarkibiy tuzilishi.<sup>6</sup>**

Mahalliy budjetlar “Budjet tizimi to'g'risida”gi Qonunga muvofiq, Qoraqalpog'iston Respublikasi davlat budjeti, viloyatlar budjetlari, viloyatlar budjetlariga kiruvchi quyi (shahar, tuman) budjetlarni o'z ichiga oladi.

Ularning daromadlari va xarajatlari tarkibi, budjet jarayoni va budjet huquqi qonun bilan belgilangan. Mahalliy maxsus fondlar – mahalliy boshqaruv organlari tomonidan tuziladi va mahalliy ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish ehtiyojlarini qo'shimcha pul mablag'lari bilan ta'minlashga xizmat qiladi. Ularga:

- mahalliy hukumat organlarining maxsus mablag'lar bo'yicha hisob raqami;
- “Mahalla fondi” kabilar kiradi.

Horijiy davlatlarda mahalliy hokimiyat organlari ihtiyoridagi maxsus pul fondlari soni va mahalliy moliya tizimidagi salmog'i ancha yuqori bo'lib, ular

<sup>6</sup> www.ziyonet.uz



avtonom mustaqillikka egaligi, markaziy hukumat tomonidan qattiq nazoratga tortilmasligi, doimiy yoki vaqtinchalik, ayrim ijtimoiy-iqtisodiy maqsadlarni ko'zlab tuzilishi bilan xarakterlanadi.

Hududiy iqtisodiyot muammosini ilmiy talqin etishda ikki xil yondoshuv mavjud:

1. Mazkur muammoga hududlar ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotidagi tafovutlar mavjudligi bois davlatning qoloq hududlarni qo'llab-quvvatlashi zarurligini ta'kidlash nuqtai-nazaridan yondoshish.

2. Mazkur muammoga har qaysi hudud o'zi egalik qilayotgan iqtisodiy imkoniyatlardan yanada ko'proq va hatto o'zi foydalanishi zarurligini, har qaysi hudud o'z ijtimoiy muammolarini o'zi hal qilishini yoqlash orqali yondoshish.

O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyotining bugungi kundagi o'ta mas'uliyatli holati hududlar ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotining yangidan-yangi muammolarini ko'ndalang qilib qo'yimoqda. Hozirgi kunning global vazifalarini hal etishning samarali usullarini qidirib topishga intilishgina emas, balki iqtisodchi-olimlar diqqat-e'tiborini jahon iqtisodiy xazinasidurdonalaridan iborat butun «pragmatik» potentsialdan, jumladan, jahon miqyosida iqtisodiy jarayonlarni tartibga solish konsepsiyasining uslubiy, metodologik, nazariy ahamiyatini o'rganishga qaratish ham muhim hayotiy zaruriyatdir.

Jizzax viloyati hududlarining moliyaviy-budjet rivojlanishi istiqbollari belgilanayotganda imkon doirasida shunga e'tiborni qaratish kerakki, iqtisodiy va ijtimoiy muammolar ma'muriy usullardan holi, yuqori organlarning aralashuvisiz, asosan, hududda yaratilgan va jalb qilingan mablag'lar hisobidan hal etilishi kerak.

Jizzax viloyati hududlarida barcha subyektlar o'rtasidagi o'zaro moliyaviy munosabatlar quyidagi tamoyillar asosida tashkil etiladi:

- hudud mahalliy budjeti daromadlar qismining barqarorligini iqtisodiy potentsialni samarali rivojlantirish asosida ta'minlash;

- mahalliy budjetlar uchun daromadlar manbalari va ajratmalar stavkalari tizimini, shuningdek ularning amalga oshiradigan funksiyalariga mos ravishda xarajatlar turlarini qat'iy belgilash;

- hududni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish maqsadida korxonalar va tashkilotlarning, hududda joylashgan davlat korxonalirining, shuningdek aholining va chet el investorlarining mablag'larini jalb qilish va muvofiqlashtirilgan holatda ishlatish.

Respublika budjeti-davlat budjetining umumdavlat to'g'risidagi tadbirlarini moliyalashda foydalaniladigan qismi, unda daromadlar manbalar va ulardan tushumlar miqdori, yana, moliya yili mobaynida aniq maqsadlar uchun ajratilgan mablag'lar sarfi yo'nalishi, miqdori nazarda tutiladi. O'zbekiston mustaqillikka erishishi va ijtimoiy bozor iqtisodiyoti asri yo'l tutish davrida budjetning va mahalliy budjetning respublikani ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishidagi roli yanada oshdi.

Moliya huquqiga oid adabiyotlarda moliya tizimi, organlari, kredit, soliq organlarigan iborat, ularga davlat pul jamg'armalarini tashkil etish, taqsimlash va foydalanish bo'yicha tegishli vakolat berilgan.

Budjet orqali moliyaviy ta'minlash munosabat ishtirokchilaridan biri kredit muassasasi hisoblanadi. Unda budjetdan moliyalanuvchi tashkilotlarga hisobvaraqa ochiladi. U budjetni kassa ijrosida va moliyaviy intizomga rioya etish yuzasidan nazoratni bajarishda ishtirok etadi. 3-ishtirokchi budjet mablagini taqsimlovchi budjet tashkiloti. U ajratilgan mablaglarni tasarruf etadi, quyi taqsimlovchilarga beradi.

Har davlat hayotida moliya umumiy iqtisodiy vazifalarni hal etishga, ijtimoiy taraqqiyotning dolzarb muammolarini yechishga imkon beradi. Shu sababli moliya tizimi o'zaro bog'liqlik va ta'sir etuvchi bo'g'inlar. Bu tizimda budjet tizimini boshqarish, muvofiqlashtirish davlat moliyaviy faoliyati samaradorligining muhim vositasi.

Mahalliy budjet ob'ektiv iqtisodiy kategoriya bo'lib, ikki tomonlama xususiyatga ega.

Birinchi, u iqtisodiyot tarmoqlarini moliyaviy ta'minlashga qaratilgan xarajatlardan iborat.

Ikkinchi, esa bu xarajatlar korxonalarining daromadidan tashkil topadi.

Mahalliy budjet daromadlarini shakllantirish hozirgi bozor iqtisodiyotiga o'tish

davrida respublika va uning hududlarini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Hududiy iqtisodiyotni rivojlantirish va mahalliy budjetlar imkoniyatlarini hamda iqtisodiy erkinlashtirish shart-sharoitida mahalliy budjetlarni shakllanishi va ijrosini ta'minlashda mahalliy xokimiyat organlarining moliyaviy va xuquqiy rolini oshirish yo'nalishlarining ilmiy tadqiqi hozirgi kunda dolzarb ahamiyat kasb etadi. Biz bilamizki, budjetlarning mustaqilligi budjet tizimining asosiy tamoyili sifatida belgilangan bo'lib ushbu tamoyil turli darajadagi vakolatli hokimiyat organlarining o'zlariga berilgan vakolatlari doirasida budjet jarayonini mustaqil ravishda amalga oshirish huquqlarini anglatadi. Har bir darajadagi budjet daromadlarining o'z manbalari, shuningdek, joylardagi vakolatli hokimiyat organlarining qonunlarida belgilangan doiralarida mahalliy soliqlar va yig'imlar soliq stavkalarini o'zgartirish huquqini qonun asosida mustahkamlab qo'yilgan.

## **2.2. Jizzax shahar hokimligi Moliya bo'limining tashkiliy tuzilishi, daromadlari tarkibi va tuzilishining tahlili**

Mahalliy budjetlar O'zbekiston Respublikasining budjet tizimining muhim tarkibiy qismini tashkil etadi. Ular davlat hokimiyatining har bir mahalliy organi o'z faoliyatini amalga oshirishi uchun uning ixtiyorida aniq moliyaviy baza yaratadi. Mahalliy budjetlar tizimi mahalliy talab extiyojlarni tuliqroq hisobga olish hamda davlat tomonidan markazlashgan tartibda amalga oshiradigan tadbirlar bilan to'g'ri olib borish imkonini beradi.


Mahalliy budjetlar moliyaviy mustaqilligini ta'minlash uchun ularning daromadlar bazasini ham mustahkamlash lozim. Buning uchun daromad olishni markazsizlashtirish lozim, bu mahalliy boshqaruv organlarini iqtisodiy bazani rivojlantirishga va o'z qaramog'idagi hududlarga investitsiya kiritishga xarakatlantiradi va natijada soliq tushumlarini ko'paytiradi.

Tashkilotlarni tuzish – bu uning tarkibini shakllantirish, bo'limlarini aniqlash jarayoni bo'lib, uning maqsadlari va aniq vazifalarini bajarish uchun etarli bo'lishi kerak.

Shunday qilib, ma'lum tizimning (iqtisodiy tarmog'ining) rahbarlar ierarxiyasi

tuziladi. Bu vakolatlarning markazlashtirishga, strategik va joriy qarorlarni qabul qilishda yuqori raxbarning rolining belgilaydi. Chiziqli boshqaruv strategiyasi samarali bo'lib, mintaqan to'g'ri va aniq shakllangandir. Bu strukturada aniq, o'zaro sodda, aniq shakllangan javobgarlik, tezkor bajarish intizomi mavjud.


Quyidagi chizmada biz "Moliya yangiliklari agentligi" MChJning tashkiliy strukturasi ko'rishimiz mumkin:<sup>7</sup>



#### 4-rasm. Jizzax viloyati hokimligi Moliya boshqarmasining tashkiliy tuzilmasi

O'zbekistonda mahalliy budjet daromadlarining asosiy manbasi mahalliy soliq va yig'imlar, umumdavlat soliqlaridan ajratmalar va yuqori budjetlardan tushumlardir.

<sup>7</sup> [www.jizzax.uz](http://www.jizzax.uz) rasmiy sayti



**5-rasm. Mahalliy budjetlar daromadlarining guruhlanishi<sup>8</sup>**

Har yili davlat budjeti parametrlarini belgilashda har bir viloyat uchun umumdavlat soliqlarining har bir turi bo'yicha ajratmalar me'yorlari belgilanadi.

Umumdavlat soliqlaridan ajratmalar me'yorining yillik o'zgarishi soliq daromadini boy va kambag'al hududlar orasida qisman qayta taqsimlashni ko'zda tutadi. Biroq bunday mexanizm mahalliy hokimliklarni hududlarning iqtisodiy va soliq bazasini rivojlantirishda rag'batini pasaytiradi, ularni soliq tushumlarini yaxshilashdan manfaatdor etmaydi. Bunday yondashuv moliyaviy rejalar va hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning uzoq muddatli dasturlarini ishlab

<sup>8</sup> O'zbekiston Respublikasining "Budjet tizimi to'g'risida"gi Qonuni asosida talaba tomonidan tayyorlandi.

chiqish imkoniyatini istisno qiladi.

Har yili davlat budjeti parametrlarini belgilashda har bir viloyat uchun umumdavlat soliqlarining har bir turi bo'yicha ajratmalar me'yori belgilanadi.

Umumdavlat soliqlaridan ajratmalar me'yorining yillik o'zgarishi soliq daromadini boy va kambag'al hududlar orasida qisman qayta taqsimlashni ko'zda tutadi. Fikrimcha, bunday mexanizm mahalliy hokimliklarni hududlarning iqtisodiy va soliq bazasini rivojlantirishda rag'batini pasaytiradi, ularni soliq tushumlarini yaxshilashdan manfaatdor etmaydi. Bunday yondashuv moliyaviy rejalar va hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning uzoq muddatli dasturlarini ishlab chiqish imkoniyatini cheklab qo'yadi. Mahalliy budjetlarning mavqeini yanada oshirish hukumatning budjet siyosatini samaradorligini oshirishda xizmat qiladigan muhim omil ekanligi ahamiyatga molikdir.

Respublika hukumati va mahalliy hokimiyat organlari tomonidan ko'riladigan chora-tadbirlar natijasida keyingi yillarda mahalliy budjetlarning daromad qismlarini shakllantirish masalalarida ijobiy siljish kuzatildi.

Mahalliy budjet daromadlari:

- Qonun hujjatlarida belgilangan normativlarga muvofiq mahalliy budjetlarga yo'naltiriladigan yig'imlar, bojlari va boshqa majburiy to'lovlar.

- Qonun hujjatlarida belgilangan normativlarga muvofiq mahalliy budjetlarga o'tkaziladigan umumdavlat soliqlari va boshqa majburiy to'lovlar.

- Qonun hujjatlarida belgilangan normativlarga muvofiq davlat mulki obyektlarini joylashtirish-u foydalanishga berishdan olinadigan daromadlar

- Qonun hujjatlarida belgilangan normativlarga muvofiq meros olish, hadya etish huquqi bo'yicha davlat mulkiga o'tgan pul mablag'lari.

Yuqori budjetlardan olinadigan budjet dotatsiyalari, subvensiyalari va subsidiyalari.

- Yuridik va jismoniy shaxslardan hamda chet el davlatlaridan kelgan qaytarilmaydigan pul tushumlari.

- Qonun hujjatlarida belgilangan normativlarga muvofiq boshqa daromadlar hisobiga shakllantiriladi.

O'zbekistonning yagona soliq tizimi yaratilib, unga umumdavlat, mahalliy soliqlari va yig'img'lar kiritiladi. O'zbekiston Respublikasining Soliq Kodeksining 5-8 moddalariga binoan soliq tizimi quyidagi tarkibga ega: umumdavlat soliqlari yuridik va jismoniy shaxslarning daromad solig'i, qo'shilgan qiymat solig'i, aksiz solig'i, suv resurslardan foydalanish solig'i, bojxona solig'i, qimmatli qog'ozlarni ro'yhatdan o'tkazish solig'i va boshqalar;

Mahalliy soliqlar va yig'img'lar mol-mulk, yer, kichik biznes uchun yagona, ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish, savdo solig'i uchun yig'imi, jumladan, alohida tovarlar turlarini sotish uchun letsinziya yig'imi, tadbirkorlik bilan shu'g'ullanuvchi yuridik va jismoniy shaxslarni ro'yhatdan o'tkazish yig'imi, avtotransportning vaqtinchalik turar-joy yig'imi va solig'i.

Tadbirkor jismoniy shaxslardan olinadigan soliq- fiskal soliq. Pivo, o'simlik yog'i, xo'jalik sovunidan olinadigan aksizlar 2002-yilda asosan ishlash va ishlash mahsulotlari, xrustal buyumlar, xrustaldan yasalgan qandillar, mebel, vedio-audio apparaturasi va kumushdan qilingan oshxonada anjomlaridan olinadigan aksizlar ham mahalliy budjetga kiritildi.

Barcha mahalliy budjetlar mustaqilligidan kelib chiqib, ularni davlat qo'llab – quvvatlashi, hududiy daromadlar manbalarini, mahalliy budjetlar daromadlarni o'z daromadlari yoki birlashtirilgan soliqlar hisobiga shakllantiriladi. Mahalliy budjet daromadlari 2 ga bo'linadi:

- Bevosita tushuvchi daromadlar
- Yuqori tashkilotdan ajratma sifatida keladigan daromadlar;

Mahalliy budjetlarning daromadlari shaharlarda 30-40%ni, qishloqlarda 10-20%ni, qolgan qismini ajratma daromadlar tashkil etadi. Mahalliy budjet qanchalik rivojlansa, daromadlari ko'payadi, imkoniyati shuncha barqaror bo'ladi. Tartibga solinuvchi daromadlar pul mablag'larining yig'indisi yuqori budjetlardan quyi budjetga beriladigan barcha moliyaviy resurs.

Qoraqalpogiston Respublikasi va mahalliy budjetga budjet ssudasi shaklida ham moliyaviy mablag'lar kelib tushadi. U yuqori budjetdan quyi budjetga yoki Respublika budjetiga prezident- yuridik shaxs yoki chet el davlatga qaytarish sharti

bilan ajratilgan mablag'.

Budjet subvensiyasi – qonun hujjatlarida nazarda tutilgan tartibda muayyan maqsadlarda sarflash sharti bilan yuqori budjetdan quyi budjetga qaytarmaslik sharti bilan ajratiladigan pul mablaglari.

Budjet dotatsiyasi- o'z daromadlari va budjetni tartibga soluvchi boshqa mablag'lar yetishmagan taqdirda quyi budjetning xarajatlari bilan daromadlari o'rtasidagi farqni qoplash yuqori budjetdan quyi budjetga qaytarmaslik sharti bilan ajratiladigan pul mablaglari.

O'zbekiston Respublikasi ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyotining yaratilishida boshqa xo'jalik tadbirlari bilan moliya-soliq tizimida tub o'zgarishlar ro'y berishini ko'zda tutadi. Mahalliy budjetlar daromadini oshirishni ichki zararlarni, hududlarni ishlab chiqarishini rivojlanishi, joylarda iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish bilan chambarchas bog'liq.

Budjet tushumini ushbu tartibda takomillashtirish hisobiga mahalliy hokimyat organlari o'z hududlarida joylashgan korxonalar faoliyatining samaradorligini oshirishdan manfaatdor bo'ladi. Soliqning to'la va o'z vaqtida to'lanishi ustidan ham nazorat qilishga qiziqish paydo bo'ladi. Chunki Respublika budjetiga ushbu soliqlardan tushgan umumiy tushumdan belgilangan me'yorlar asosida ajratma qilishdan ko'ra, mazkur hududda ushbu soliqlar tushumida o'z ulushini qonuniy tartibda kafolatlab qo'yilishi bizning fikrimizcha afzalroq.

Mahalliy budjetlar tizimi mahalliy ehtiyojlarni to'laroq hisobga olish va davlatning markazlashgan tartibda bajaradigan tadbirlarni to'g'ri qilish imkonini beradi. Budjetlararo munosabatlarnining muhim sharti turli daromaddagi budjetlarning moliyaviy bazasini shakllanishining o'zaro bog'liqligini ta'minlash. Bu baza har bir budjetning o'z daromadidan, birlashtirilgan va tartibga soluvchi soliq tushumlari, yuqori budjetdan ajratiladigan turli shakldagi moliyaviy yordamlardan iborat.



### **2.3. Budjet daromadlari shakllanishi va xarajatlar yo'nalishining tahlili**

Mahalliy budjet tushumini takomillashtirish hisobotiga mahalliy hokimyat organlar hududlarida joylashgan korxonalar faoliyatining samaradorligini oshirishdan manfaaatdor bo'ladi. Soliqlarning to'lanishi ustidan nazoratiga qiziqish paydo bo'ladi.

Bugun mahalliy hokimiyatlarning budjetini shakllanishida real amaliy qadamlar yo'qligi uchun, ma'muriy hududlarning daromadlari yuqori budjet mablag'laridan shakllanmoqda.

Davlat budjetining daromadlari barqarorligini ta'minlaydigan mahalliy budjetni mustahkamlaydigan asosiy yo'lardan biri ularning mustaqilligi va imkoniyatlarini oshirish zarurdir.

Davlat budjeti daromadlari shakllanishida soliq va yig'implar tushumini ta'minlash talab etiladi, bu vazifaning hal etilmaganligi soliq siyosati samaradorligini past ekani, soliq funkisiyalarini bajarmagidan dalolatdir.

Davlat budjeti daromadlariga ta'sir etuvchi omillar:

- Makroiqtisodiy ko'rsatkichlar, ya'ni YAIM hajmi, narxlarning o'sish darajasi, bandlilik va aholi daromadlari;

- Davlat fiskal siyosati, ya'ni soliq stavkalarini o'zgartirish, imtiyozlar berish, xarajatlarni kamaytirish.

- Davlat budjeti to'lovlari vaqtida bajarilmasligi, zarur daromadlari vaqtida olinmasligi va xarajatlarni moliyalashda jiddiy muammolarga sababdir. To'lovlarni to'lov intizomi mustahkamlash ilmiy to'liq yechimini topmagan desak bo'ladi.

Bugun mahalliy budjetlar daromadlarini soliq yukini o'stirish hisobiga ko'paytirish yaxshi samara bermaydi. Shuning uchun soliq imtiyozlarini qisqartirish va muomalarni takomillashtirish, shuningdek, soliq va yig'implarni to'planishini ta'minlaydigan to'lov intizomiga rioya qilish hisobiga mahalliy budjetlar daromadlarini ko'paytirish mumkin.

## Mahalliy budjetlar bo'yicha boqimanda qarzlار.

(ming so'm)

T/r	Hududlar nomi	2014-yilning Yanvar holatiga	Boqimanda qarzlار o'sishining jami tushumdagi salmog'i	Boqimanda qarzlarning salmog'i
1	Qoraqalpog'iston	4274.1	2.4	4.1
2	Andijon	11302.1	6.7	11.0
3	Buxoro	7879.5	1.5	7.6
4	Jizzah	2212.7	4.4	2.1
5	Qahqadaryo	4448.0	0.7	4.3
6	Navoiy	1824.4	0.5	1.8
7	Namangan	3695.5	1.3	3.6
8	Samarqand	4454.2	2.2	4.3
9	Surxondaryo	5317.4	3.0	5.2
10	Sirdaryo	962.5	0.1	0.9
11	Toshkent	9425.9	1.5	9.1
12	Farg'ona	13019.0	2.8	12.6
13	Xorazm	5118.9	3.2	5.0
14	Toshkent sh.	29055.4	0.6	28.2
	<b>Jami</b>	<b>103043.6</b>	<b>1.5</b>	<b>100</b>

Manba. [www.jizzax.uz](http://www.jizzax.uz) sayti

Mahalliy budjet daromadlari bazasini ko'paytirish uchun soliq islohotlarini yana chuqurlashtirish lozim. Jumladan:

- Soliq qonunlarini yanada aniqlashtirish soliqqa doir hujjatlarni soddalashtirish maqsadida uni takomillashtirish;
- Soliqqa tortish bazasini kengaytirish, soliq stavkalarini kamaytirish;
- Ayrim soliq to'lovchilar bilan bo'ladigan soliq munosabatlarida neytralligini ta'minlash, qator soliq imtiyozlarini qayta ko'rib chiqish va bekor qilish, bir xil soliq bazasiga ega bo'gan soliqlarni birlashtirish;
- Qonun hujjatlariga rioya qilishda qattiq tez nazoratni belgilash, fuqarolar va tashkilotlarni soliq to'lash bo'yicha ma'suliyatini oshirishdan iborat.

Mahalliy soliqlar bo'yicha "Soliq boqimandaligi" muammosini yechish uchun:

- Muddati o'tgan 'soliq boqimandaligi'ni oshishiga olib kelsa, soliq to'lashni sxemalar qo'llash amaliyotidan voz kechish.

- Katta qarzi bo'lgan soliq to'lovchilar bilan soliq postlarini tashkil qilish, majburiy boshqaruv apparatiga soliq vakillarini kiritish bilan alohida ishlar olib borish.

- Soliqlar bo'yicha qarzlari juda ko'p bo'lgan sharoitda korxonaga bankrotlik muolajasini qo'llash.

- Mulkdorlarni va muassasa rahbarlarini budjetga soliq o'tish majburiyatini belgilash.

- Soliq boqimandaligi ko'p taqdirda to'lovchilarning mulki yuzasidan alohida ishlar olib borishdan iborat.

### 3-jadval

#### Jizzax viloyati maxaliy budjetining 2015 yil 9 oylik ijrosi

Shahar va tumanlar nomi	Daromadlar (haqiqiy)	Xarajatlar (kassa)
Viloyat budjeti	129 028,9	155 306,3
Jizzax shahri	18 904,2	49 182,2
Arnasoy tumani	4 555,7	16 422,7
Baxmal tumani	10 907,0	48 106,3
G'allaorol tumani	18 982,1	61 305,7
Jizzax tumani	19 607,5	60 487,8
Do'stlik tumani	18 659,4	20 734,5
Zomin tumani	17 265,4	56 167,2
Zarbdor tumani	9 925,9	26 686,5
Zafaobod tumani	9 542,7	17 428,9
Mirzacho'l tumani	6 152,2	19 635,6
Paxtakor tumani	9 487,5	23 477,0
Forish tumani	9 247,9	33 817,6
Yangibod tumani	2 045,6	12 054,9
<b>Jami</b>	<b>284 312,0</b>	<b>600 813,1</b>

Manba. [www.jizzax.uz](http://www.jizzax.uz) sayti

Mahalliy budjetlarning xarajatlarini daromadlari bilan taqqoslash hamda uning dotatsiya yoki subvensiyadan foydalanish natijalariga qarab "o'z daromad bazasi bilan ta'minlanganlik" ko'rsatkichini aniqlash mumkin. Budjet tizimida mahalliy budjetlar bo'g'inining va ayniqsa, bir bo'g'indagi mahalliy budjetlarning yuqori budjet bo'g'ini bilan munosabatlarini tashkil etishda mahalliy budjetlarning donor turini yoki retsipient turini farqlash lozim.

Umumdavlat soliqlaridan yuridik shaxslarning daromad (foyda)lariga soliq, jismoniy shaxslarning daromadlariga solinadigan soliq, qoʻshilgan qiymat soligʻi va aktsiz soligʻi tartibga soluvchi umumdavlat soliqlari deb atalib, har yili qonuniy tartibda belgilanadigan normativlar boʻyicha tegishli budjetlar oʻrtasida taqsimlanadigan soliqlardir.

“Budjet tizimi toʻgʻrisida”gi Qonunga muvofiq budjet munosabatlarida turli budjetlar oʻrtasida taqsimlanadigan quyidagi mablagʻlar qaysi budjetlardan yoʻnaltirilayotgan boʻlsa, shu budjetlar xarajatlari tarkibiga, qaysi budjetga borib tushayotgan boʻlsa, shu budjetlar daromadlari tarkibiga kiritiladi:

1. Tasdiqlangan miqdorlar doirasida budjet subvensiyalari va dotasiyalari.
2. Budjet ssudalari va ularning qaytarilishi.
3. Yuqorida taʼkidlangan qonunga va tegishli yilning Davlat budjetiga muvofiq amalga oshiriladigan boshqa oʻzaro hisob kitoblar.

#### 4-jadval

#### Jizzax viloyati maxaliy budjetining 2015 yil 1-yarim yillik ijrosi

(mln.soʻm)

Shahar va tumanlar nomi	Daromadlar (haqiqiy)	Xarajatlar (kassa)
Viloyat budjeti	85 745,5	100 200,8
Jizzax shahri	12 866,1	33 151,2
Arnasoy tumani	2 977,2	11322,6
Baxmal tumani	7 049,3	33 225,3
Gʻallaorol tumani	12 716,7	41 8S4.5
Jizzax tumani	12 973,0	42 309,1
Doʻstlik tumani	12 248,7	14 059,0
Zomin tumani	11 769,7	38 889,7
Zarbdor tumani	6 513,8	18291,3
Zafaobod tumani	6 318,3	12 036,6
Mirzachoʻl tumani	3 970,9	13 728.7
Paxtakor tumani	6 345,9	16 300,7
Forish tumani	6 105.,9	23 472,6
Yangibod tumani	I 328,7	7 712,9
<b>Jami</b>	<b>188 929,6</b>	<b>406 555,0</b>

Manba. [www.jizzax.uz](http://www.jizzax.uz) sayti

Koʻplab xarajat vakolatlari boshqaruv organlarining ikki boʻgʻini – respublika va mahalliy boshqaruv organlari orasida boʻlinadi. Bunda xarajatlari uchun aniq

reglamentlash va chegaralangan javobgarlikning yo'qligi yangi tashkil qilinayotgan muassasalar budjeti manbasini aniqlashda anglashilmovchilikka olib keladi, boshqaruv organlarining budjet mablag'ini ishlatishdagi mas'uliyatini mavhumlashtirib, aholiga xizmat ko'rsatish sifatining pasayishiga olib keladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov ta'kidlaganlaridek, hayotimizni erkinlashtirish yo'nalishlarining yana bir muhim yo'li-markaziy va yuqori davlat boshqaruv idoralari vazifalarini davlat hokimiyatining quyi tuzilmalariga, fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlariga bosqichmabosqich o'tkaza borishni ta'minlashdir. "Mamlakat budjeti daromad qismining 56 foizini va xarajat qismining 52 foizini hududiy budjetlar tashkil etmoqda.

Agar barcha boshqaruv masalalari moliyaviy yo'l bilan hal etilishini nazarda tutadigan bo'lsak, mana shu raqamlar hududiy hokimiyat tuzilmalari va kolatlarini kengaytirish borasida qilingan ishlar salmog'ini yaqqol ko'rsatib turibdi"<sup>9</sup>.

Mahalliy budjetlar xarajatlarini rejalashtirishda O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi rejadagi daromadlaridan kelib chiqadi, hududlar esa o'z xarajatlarini rejalashtirishda ehtiyojlaridan kelib chiqadi. Budjet jarayonida mahalliy budjetlarning eng maqbul xarajatlari rejasi aniqlanadi, bu reja esa budjetning daromadlar bazasidan kelib chiqadi. Ba'zi salbiy holatlarni bartaraf etish maqsadida mahalliy budjetlar xarajatlari me'yor asosida amalga oshiriladi. Hozirgi bosqichda mahalliy budjetlar xarajatlarini jon boshiga to'g'ri keldigan me'yorlar asosida sohalar bo'yicha aniqlash, bunda tuman koeffitsiyentlarini hisobga olish eng oddiy va alternativ usulga aylandi.

Shuningdek, mahalliy hokimliklarning moliyaviy mustaqilligini kengaytirish maqsadida "Budjet tizimi to'g'risida"gi qonunning 32-35 moddalariga muvofiq yil boshida mahalliy budjet hisob raqamida shakllangan erkin qoldiq va choraklar yakunida daromadlarning rejadan oshirib bajarilgan qismini turli ijtimoiy-iqtisodiy tadbirlarga yo'naltirish huquqi belgilangan.

Bu esa hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish uchun qilinayotgan

---

<sup>9</sup> Karimov I.A. O'zbekistonda demokratik o'zgarishlarni yanada chuqurlashtirish va fuqorolik jamiyati asoslarini shakllantirishning asosiy yo'nalishlari. 2002 yil 30 avgust.

xarajatlarni imkon qadar mahalliy budjetlar orqali moliyalashtirish borasidagi tadbirlari natijasidir.

Biz bilamizki, O`zbekistonning mustaqillik yillaridagi islohotlarining dastlabki bosqichlarida, Respublika byudeti mahalliy budjetlaridan ustun mavqeda turdi. Mahalliy budjetlar xarajatlarini baholashning nisbatan asoslangan usuli ovqatlanish uchun xarajatlarning tibbiy me'yorlarini, ta'lim sohasida uslubiy materiallar va bitta o'qituvchiga to'g'ri keladigan o'quvchi soni me'yorlarini, budjet tashkilotlari uchun kommunal xizmatlari xarajatlari bo'yicha limitlarni va boshqalarni hisobga oluvchi yagona davlat me'yorlari asosida xarajatlarni moliyalashtirish maydonga chiqadi.

## 6-jadval

### 2014 yilda ijtimoiy soha va aholini ijtimoiy qo'llab-quvvatlash xarajatlarining tarkibi<sup>21</sup>

Oilalarga ijtimoiy nafaqalar	1839,9
Ijtimoiy ta'minot	197,3
Ilm-fan	173,1
Madaniyat va sport	279,1
Sog'liqni saqlash	3768,6
Qishloq joylarda uy-joylar qurishni hamkorlikda moliyalashtirish uchun kredit liniyalari	374,7
Ta'lim	8984,6

Shu boisdan ta'kidlash lozimki, bu kabi yagona davlat me'yorlarini hozirgi sharoitda qo'llash xarajat moddalari bo'yicha mahalliy budjetlar xarajatlarini ongli tarzda qisqartirishni anglatadi va bu holat xarajat guruhlaridagi u yoki bu moddalar bo'yicha moliyalashtirishdarajasining asoslanmagan tarzda keskin tebranishlariga olib keladi. Ushbu amaliyot shuni anglatadiki, budjet tizimi bo'g'inlari faoliyatining huquqiy asosi bo'lmish «Budjet tizimi to'g'risida»gi qonun o'zining

«belgilangan xarajat yo'nalishlari va hajmlari bo'yicha mablag'larni taqsimlash»ni ta'minlay olmasligi oqibatida tegishli funksiyasini bajara olmayotir.

Budjet xarajatlarni taxminlashtirish va ijro etish jarayonidagi «davlat zaruriyati» tufayli respublika budjetidan mahalliy budjetlar ixtiyoriga yoki mahalliy budjetlardan respublika budjetiga o'tkaziladigan xarajatlar o'zaro hisob-kitoblarga qo'yilmoqda.

Xozirgi vaqtda maxalliy xokimiyat organlarining ma'muriy xududlarni iqtisodiy va ijtimoiy rivojlantirish yuzasidan huquq va majburiyatlari tobora ortib bormoqda. Bu esa ularning moliyaviy bazalarini yanada kengaytirish va mustaxkamlashini ob'ektiv zaruriyatiga aylantirib qo'yadi.

### **Ikkinchi bob bo'yicha qisqacha xulosa.**

O'zbekistonda budjet tizimida taraqqiyotning hozirgi bosqichida budjet va ijtimoiy siyosatning manfaati birligini ta'minlash asosidagi o'ta ma'suliyatli vazifalarni samarali boshqarishni talab etadi, bu vazifaning 2 jihatini ajratish muhim:

- birinchidan, davlat ijtimoiy siyosatning joylardagi ijobiy ijrosi yoki hududiy iqtisodiyot muomalari keskinlashuvining oldini olish.

- ikkinchidan, mahalliy budjetlar huquq va majburiyatlarining kengayib borishi sharoitida shunga mos tarzda ular imkoniyatlarini yaxshilash zarurligi. Bu jihatlarning o'zaro bog'liqlikda olib borilishi sharoitida shunga mos tarzda ular imkoniyatlarini yaxshilash zarur.

- Respublika va mahalliy budjetlarning QQS, korxonalar foydasidan olinadigan soliq, aksiz solig'i kabi asosiy soliqlardan tushumdagi ulushini qonuniy belgilash lozim.

Mahalliy budjet daromad bazasini ko'paytirish uchun soliq islohotlarini yanada chuqurlashtirish lozim. Jumladan:

- Soliq qonunlarini yanada aniqlashtirish, soliq hujjatlarini soddalashtirish maqsadida uni takomillashtirish.

- Soliqqa tortish bazasini kengaytirish(soliq stavkasini kamaytirish).

- Ayrim to'lovchilar bilan bo'ladigan soliq munosabatlarini neytrallashtirish.

- Qonun hujjatlariga rioya qilishda tezkor nazoratni belgilash, fuqarolar va tashkilotlarni soliq to'lash bo'yicha ma'suliyatni oshirishdan iborat.

Birinchi o'ringa, O'zbekiston Respublikasida mahalliy soliqlarni huquqiy asos sifatida Soliq Kodeksiga qadar 1993 yil may oyida qabul qilingan «Mahalliy soliqlar va yig'imlar» to'g'risidagi Qonun xizmat qilar edi. Bu qonun Soliq Kodeksi qabul qiligidan so'ng o'z kuchini yo'qotdi bu qonuning asosiy mazmuni esa kodeksda o'z aksini topdi. Biroq, qayd etish zarurki, «Mahalliy soliqlar va yig'imlar to'g'risida»gi Qonunda mahalliy soliqlar bo'yicha mahalliy hokimiyatlarni soliq va budjet huquqlari aniq yoritib berilgan edi, ammo, bu holat Soliq Kodeksida to'liq aks ettirilmagan, ya'ni bunda mahalliy soliqlar va yig'imlar bo'yicha faqat ularni turlarini ko'rsatish bilan cheklangan va mahalliy hokimiyatlarning soliq huquqlari mavhum holda qolgan.



### **III BOB. INNOVATSION TADBIRKORLIKNI BOSHQARISHNI TAKOMILLASHTIRISH YO`NALISHLARI**

#### **3.1. O`zbekistanda innovatsion tadbirkorlikni rivojlantirish yo`nalishlari.**

Innovatsion faoliyat markazlashtirilgan va markazlashtirilmagan turda moliyalashtiriladi. Birinchi usulda pul mablag`lari: davlat budjeti, ilmiy-texnik rivojlanish davlat dasturiga kiritilgan loyixalarni maqsadli moliyalashtirish; tanlov ishlarini bajarish buyicha jamqarmalar; muayyan loyiha uchun ajratilgan va qaytarilishi kutilmaydigan grantlar xamda subsidiyalar; xokimiyatlar va boshqaruv organlari maxsus buyurtmalarini moliyalashtirish: davlag banklarning kreditlari xisobidan taqdim etiladi.

Moliyalashtirishning markazlashtirilmagan usuli korxonalarining xususiy mablag`lari, xususiy shaxslar, maxsus moliya yoki hayriya jamg`armalari xamda kredit mablag`laridan foydalanishga asoslangan. Masalan: AQSHda sanoat kompaniyalari va banklari, universitetlar, kollejar, federal xukumat idoralari hamda maxalliy boshqaruv organlari, soxalar va ularning uyushmalari, xususiy shaxslar ilmiy jamg`armalarini tashkil qilishda faol qatnashadilar.

O`zbekistonning davlat investitsiya siyosati birinchi navbatda iqtisodiyotda tuzilmaviy o`zgarishlarni chuqurlashtirish, korxonalar investitsiya faoliyatini jadallashtirish xamda chet el investitsiyalarini keng miqyosda jalb qilish, shuningdek, investitsiya loyixalari tanlovi asosida ijtimoiy masalalarni xal etishga yo`naltirilgandir.

O`zbekiston Respublikasining 2004 yilga mo`ljallangan investitsiya dasturiga muvofiq, mamlakat iqtisodiyotiga kapital qo`yilmalar ilm talab soxalarni raqobatbardosh, yuqori texnologiyalarga ega bo`lgan va ekologik muxim ishlab chiqarishlarni barqaror xamda dinamik rivojlanishiga erishishga xizmat qiladi.

Bu soxada 2004 yilda jami 2.6 trln. som kapital mablaqlarni ozlashtirish ko`zda tutilgan bo`lib, bu o`tgan yilga nisbatan 33% ko`pdir. Bunda markazlashtirilgan investitsiyalar jami qo`yilgan mablag`larning 37 foizini tashkil qiladi. Jumladan, 2000 yilda markazlashtirilgan investitsiyalar ulushi 64.5 foizni, 2002

yilda esa - 40.9 foizni tashkil qilgan. 3. Investitsiya jarayonidagi davlat ishtirokining kamayishi investitsiyalarning bozor manbalari faollashuvi, iqtisodiyotni nodavlat sub'ektlari (korxonalar, axoli, xususiy, chet el investorlari)ning investitsiya imkoniyatlari oshganligidan dalolat beradi. Bozor xojaligiga mos bo'lgan soliq tizimiga o'tish innovatsiya tuzilmasini moliyaviy jixatdan ta'minlanishi yaxshilanishiga ko'maklashadi. Mazkur tizimning moqiyati belgilanayotgan soliq miqdori maxsulotning yangi yaratilgan qiymati miqdori, olingan foyda xamda mavjud bo'lgan mulk qiymatiga bevosita bog'liqligidan iborat.

Shuni ta'kidlash joizki, amaldagi soliq tizimi kichik korxonalar, jumladan, innovatsiya korxonalari faoliyat yuritish sharoitlarini xisobga olmaydi. Innovatsiya korxonalari, boshqa xususiy korxonalar kabi, foyda soliqlarini toplash paytida soliqqa tortiladigan foyda miqdorini aniqlashda imtiyozga egadirlar. Jumladan, ularga ishlab chiqarishni kengaytirish, qayta tashkil qilish, texnikaviy jixozlash uchun yunal-tirilgan foydani chegirish xuquqi taqdim etilgan. Ishlab chiqarish uchun muljallangan maxsulot xamda kurilish materiallarini etkazib beradigan ba'zi bir korxonalar olgan foydasi ushbu korxonalar royxatga olingan kundan boshlab, dastlabki ikki yil mobaynida soliqqa tortilmaydi.

Mazkur imtiyoz tugatilgan yoki davlat tasarrufidan chiqarilgan yoxud sanatsiya natijasida qayta tuzilgan innovatsiya korxonalari, ularning filiallari hamda tuzilmaviy bolinmalariga tegishli emas.

Rivojlangan bozor iqtisodiyotiga ega mamlakatlar tajribasiga ko'ra, innovatsiya korxonalari uchun respublikada qabul qilingan xamda iqtisodiyotning ustuvor sohalarida amal qilayotgan barcha imtiyozlarni qo'llash maqsadga muvofiqdir. Bundan tashqari, ilmiy izlanishlarni bajarayotgan innovatsiya korxonalari tadqiqot ishlari uchun ilmiy-texnik asbob-uskunalar sotib olgan yilning ozidayoq, 50 foizli amortizatsiya xuquqiga, qolgan asosiy mablaq'lar xisobidan esa jadallashgan amortizatsiya xuquqiga ega bo'lishlari lozim.

Sanoat soxasi uchun innovatsiyalarni joriy etadigan korxonalarga litsenziyalar va "nou-xau"larni sotish jarayonida, soliqqa tortish jarayonida chegirmalar taqdim

etilishi, ishlab chiqarishni kengaytirishni amalga oshiradigan korxonalar esa soliqlarga tortiladigan mablaqlari hisobidan yangi asbob-uskunalar qiymatini chiqarib tashlash ququqi berilishi lozim.

Innovatsion tadbirkorlik doimiy ravishda o'zgarishni, yangi g'oya, yangi tovar modifikatsiyasi va boshqa yangiliklarni joriy qiluvchi tashkiliy formalarni joriy qilishni nazarda tutadi.

Innovatsion tadbirkorlik faoliyati uchun kichik korxonalarda yaratilgan yangilikni tijorat maqsadida ishlata oladigan bilim va intuitsiyaga ega bo'lgan mutaxassis lozim.

Kichik korxonalarda innovatsion tadbirkorlik faoliyati ustunliklari quyidagilardan iborat:

- yangilikka yaratishdan manfaatdorlikning yuqoriligi;
- tor doirada (aniq yunalishda) ilmiy izlanishlarni olib borilishi;
- barcha intellektual resurslarni yakuniy maxsulot ishlab chiqarishga yonaltirish imkonini mavjudligi;
- katta korxonalar amalga oshira olmaydigan "risk"i yuqori bolgan ishlar olib borilishi.

Innovatsion tadbirkorlik uchun biznes muhit asosiy hisoblanadi, chunki yangiliklarni kashf etish va uni amaliyotga tadbiiq qilish etarli tadbirkorlik muxitini talab qiladi.

Tadbirkorlik muhiti – bu biror bir maqsadga yo'naltirilgan izlanish(tadqiqot) olib borish va uni amalga tadbiiq qilish uchun sharoit yaratib beruvchi muqitdir.

Bunday muhitning asosiy elementlarini bozorda erkin xarakatlanuvchi, o'z moliyaviy mablag'iga ega bo'lgan investorlar, raqobatbardosh tovar ishlab chiqaruvchilar va ularga xizmat qiluvchi bozor infratuzilmalari tashkil qiladi. Iqtisodiyotda bunday bozor muhitini yaratish - xozirgi kundagi mamlakatimiz oldida turgan asosiy vazifalardan biridir.

Kichik biznes kafolatlarini mustaqkamlash, uning rivoji uchun qulay muqit yaratish maqsadida davlat boshqaruv idoralari va bozor institutlarida ma'muriy protseduralarni bajarish bilan bog'liq, ancha yuqori darajada bo'lib turgan biznes

xarajatlarini kamaytirish lozim. Biznes muhit mamlakatimizda vujudga kelayotgan innovatsion tadbirkorlikni asosini tashkil etadi.

Innovatsion tadbirkorlikning tashkiliy – huquqiy asoslari turlichadir. Bozor iqtisodiyoti rivojlangan davlatlarda katta risk (tavakkalchilik) bilan ishlaydigan maxsus venchur firmalari mavjud bo`lib, ular yangi tovar va xizmatlar yaratish ustida tadqiqotlar olib boradilar.

Venchur firma asoschilari – injener, olimlar o`z tadqiqot natijalarini eksperiment, patent va kommutant firmalarga topshiradilar.

Innovatsion tadbirkorlikning yana bir territorial tashkiliy turi - ilmiy texnologik park (texnopark) lar bo`lib, bu struktura innovatsion biznes maxsulotini ishlab chiqarish va bozorda sotishni tashkil qilishga yordam beradi va shu orqali kichik biznesda innovatsion faoliyatni rivojlantirishga yordam beradi.

Texnoparklarning asosiy vazifasi :

- ilmiy yangiliklarni texnologiyaga aylantirishdan;
- texnologiyani tijorat maxsulotiga aylantirishdan;
- kichik korxonalarda yangi yaratilgan maxsulotni ko`p miqdorda ishlab chiqarishdan;
- ilmiy izlanishni olib boruvchi firmalarni tashkil qilishdan;
- ilm bilan bog`liq barcha biznes turlarini qo`llab-quvvatlashdan iborat.

Biznes inkubatorlar – kichik kichik innovatsion korxonalar faoliyat korsatishi uchun sharoit yaratuvchi strukturadir. Biznes inkubatorlar bir qancha funktsiyalarni bajaradilar:

- kichik biznes korxonalariga imtiyozli shartlarda asbob-uskunalar etkazib beradilar, xuquqiy maslaxat va axborot xizmatlarini ko`rsatadilar;
- ilmiy texnologiyalarni tijorat asosida sotadilar;
- tadbirkorlarning malakasini oshiradilar va boshqalar.

Oqilona investitsiya siyosatini yuritishda davlat tomonidan innovatsion tadbirkorlikka sarmoya qo`yishning o`ziga xos afzalliklari mavjud. Saloxiyatli sarmoyadorlarning erkin pul mablag`larini jalb etishida eng muxim iqtisodiy instrument fond bozoridir. Aktsiyalar likvidligi, firmaning reklama-axborot

faoliyati, valyuta maydonchasida sotuvga qo`yilgan aktsiyalar xarakatining taxlili va aktsiyalar paketini chet el investorlariga sotish fond bozori xolatining yanada yaxshilanishiga xizmat qiladi.

Innovatsion biznes bo`yicha faoliyat yuritadigan tadbirkorlar va investorlarning daromadi, investitsiya korxonalari aktivlarining bozor qiymati o`shishiga belgilangan soliq stavkasiga, ya'ni fond bozorida sotiladigan qimmatli qog`ozlarning sotuv qiymatiga o`rnatiladigan soliq stavkasiga bog`liqdir. Soliq stavkasi innovatsiya korxonalarini moliyalashtirish tavakkalchiligi darajasini oshiruvchi yoki kamaytiruvchi omil xisoblanadi. Shuning uchun xam qimmatli qog`ozlar bilan amalga oshiriladigan operatsiyalarda dividendlardan, qimmatli qog`ozlarni sotib olishdan undiriladigan soliq, shuningdek, tarkibiga qimmatli qog`ozlar qiymati kiritilgan korxonalar mulkidan olinadigan soliq, kabi undiriladigan turli xil qayta-qayta soliqarga yo`l qoymaslik lozim. Soliq solishng bu kabi amaliyoti natijasida ishbilarmonlik faolligi pasayadi, ya'ni innovatsion korxonalar tashkil topishi sur'atlari qisqaradi, oqibatda hozirgi kunda korxonalarining faoliyat yuritish imkoniyatlari kamayib boradi. Soliq yukining pasayishi innovatsion tadbirkorlikka qamda iqtisodiyotning xususiy sektoriga investitsiyalar jalb qilishda ikkilamchi kapital (qimmatli qogozlar bozori)ning ahamiyatini oshiradi.

### **3.2. O'zbekistonda innovatsion tadbirkorlikni rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish yo'llari**

Bugungi kunda jahon miqyosida raqobat va iste'molchilar talabining kuchayishi, tarmoqlar ishlab chiqarishidagi diversifikatsiyalashuv va ixtisoslashuvning chuqurlashuvi jarayonlari ta'siri ostida kichik biznes faoliyatining o'zgarishi kuzatilmoqda. Bunday jarayon kichik biznesning iqtisodiy mohiyati va uning mamlakat iqtisodiyotidagi tutgan o'rniga nisbatan kengroq yondashuv zarurligini talab etmoqda.

Jahon iqtisodiyoti rivojlanishining hozirgi bosqichi innovatsion jarayonlar uzluksizligini ta'minlash va ko'lamini oshirish bilan xarakterlanadi. Bunday

sharoitda kichik biznes samaradorligi o'z faoliyatini fan yutuqlariga asoslangan ishlanmalar, sanoatda keng ko'lamli ilm-fan sig'imi yuqori bo'lgan mahsulotlar ishlab chiqarishni joriy qilish, shuningdek, ilmiy ixtiro natijalarini tijoratlashtirishga yo'naltirganligi bilan belgilanadi. Ushbu omillar iqtisodiyotda innovatsion tadbirkorlik shakllanishiga asos bo'ladi.

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda, jahon va mamlakat miqyosidagi raqobatning kuchayishi va jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi sharoitida innovatsion tadbirkorlikni rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Innovatsion tadbirkorlikni rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish, fikrimizcha, quyidagi yo'nalishlarda amalga oshirilishi lozim.

**Birinchidan**, innovatsion tadbirkorlikni institutsional qo'llab-quvvatlash. Ular quyidagilardan iborat:

- mamlakatda industrial-innovatsion yo'naltirilgan va moslashuvchan ishlab chiqarishga ixtisoslashgan xo'jalik yuritishning yangi modelini shakllantirish;

- innovatsion kodeks doirasida yagona huquqiy normalar tizimini yaratish, unda innovatsion faoliyatni tartibga soluvchi, ilm-fan sig'imiga ega tadbirkorlik sohasida asosiy atamalarni aniqlashtiruvchi, innovatsion tadbirkorlikni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash (respublika va hududiy darajada) choralari, shuningdek, intellektual mulkni himoya qilish bilan bog'liq bir qator asosiy qonunlarni aks ettirish;

- innovatsion tadbirkorlikni paydo bo'lishi va rivojlanishiga zamonaviy moliya-kredit mexanizmi bilan ko'maklashayotgan tizimlarga rag'batlantirish mexanizmini yaratish, innovatsion tadbirkorlik faoliyatini moliyalashtirayotgan tijorat banklariga maxsus imtiyoz va pereferentsiyalar tizimini o'rnatish;

- innovatsion tadbirkorlik faoliyatini rag'batlantirish uchun soliq imtiyozlari va soliqqa tortish umumiy darajasini pasaytirish yo'li bilan ularning xo'jalik yuritish sharoitini takomillashtirish, venchurli moliyalashtirish tizimini kengaytirish, yirik kompaniyalar, tijorat banklari, sug'urta tashkilotlarning

innovatsion tadbirkorlik subyektlari bilan hamkorlik qilish qiziqishlarini oshirish;

– innovatsion tadbirkorlikni bozorlar “muhit” va “sotish” o’rtasidagi munosabatni kengaytirish, bunda ularning qimmatli qog’ozlar, birinchi navbatda, korporativ bozorda, mehnat va resurslar bozorlarida, shuningdek, birjalar, sotuvlarda, yarmarkalar va auksionlarda faol qatnashishini ta’minlash;

– davlat va innovatsion tadbirkorlik o’rtasida sheriklik aloqalarining turli shakllarini joriy qilish. Bu davlat va innovatsion tadbirkorlik o’rtasida kooperatsiya aloqalarining turli shakllarini amalga oshirish, kichik texnologik firmalarni rag’batlantirish va moliyalash bo’yicha maxsus dasturlarni ishlab chiqish, shuningdek, ilmiy-texnik mahsulotlar bo’yicha davlat buyurtmalari tizimini kengaytirishni nazarda tutadi;

– innovatsion-faol korxonalar uchun konsalting xizmatlari bozori infratuzilmasini shakllantirish, maslahat xizmatlarini ko’rsatish bo’yicha bozor institutlarini rivojlantirish, professional innovatsion menejment tizimi, innovatsion loyihalarni mustaqil ilmiy ekspertiza qilish standartini yaratishda davlat ishtirokini ta’minlash;

– innovatsion tadbirkorlik vakillaridan tashkil topgan respublika va hududlarda uyushmalar, biznes markazlar, shuningdek, halqaro tadbirkorlar uyushmalarini tashkil qilish;

– innovatsion menejment bo’yicha maxsus kurslarni tashkil qilish va ushbu yo’nalish bo’yicha mutaxassislar malakasini doimiy oshirib borish, shuningdek o’quv, ilmiy, uslubiy, ma’lumot adabiyotlarini kengaytirish va innovatsion faoliyatni boshqarish masalalari bo’yicha dasturlar yaratish.

Shunday qilib, innovatsion tadbirkorlikni institutsional qo’llab-quvvatlash davlat tomonidan tartibga solish vositalari va barcha bozor mexanizmlaridan foydalanishga asoslangan chora-tadbirlar majmuasini o’zida aks ettirishi lozim. Xususan, innovatsion tadbirkorlik subyektlarini rag’batlantirishga yondashuv innovatsion tadbirkorlikning erishgan natijalari, ular faoliyatining tashqi yoki ichki bozorga yo’naltirilganligi, uning qaysi tarmoqqa mansubligi, miqdori va muddatlari bo’yicha tabaqalashgan bo’lishi zarur.

**Ikkinchidan**, kichik sanoat korxonalarini innovatsion klasterlar bilan hamkorligini rag'batlantirish. Ushbu yo'nalish innovatsion tadbirkorlikni ilmiy-tadqiqot tashkilotlari, yirik sanoat korxonalari, moliyaviy tuzilmalar va hukumat organlari bilan klaster bo'g'inlari doirasida kooperatsiya aloqalarini o'rnatishi hisoblanadi. Bu jarayonda ishtirok etayotgan subyektlar uchun o'zaro barqaror manfaatli aloqalarni shakllantirish, tashqi va ichki bozorlarda raqobat ustunliklarga erishish uchun asos bo'ladi.

O'zbekistonda innovatsion klasterlarni shakllantirish va ularga innovatsion tadbirkorlikni kirishi uchun shart-sharoit yaratish davlatning iqtisodiy siyosatining ustuvor yo'nalishi hisoblanadi va u alohida kichik innovatsion korxonalarini qo'llab-quvvatlashga yo'naltirilishigina emas, balki turli hajmdagi va turdagi faoliyatni birlashtiruvchi "yuqori texnologiyalar" tizimini rivojlantirishni rag'batlantirishga asoslanmog'i lozim.

Mamlakatda innovatsion tadbirkorlik subyektlari faoliyatini kengaytirish maqsadida quyidagi chora-tadbirlarni ko'rish zarur:

- innovatsion klasterlarni rivojlantirish bo'yicha davlat maqsadli dasturlarini ishlab chiqish va amalga oshirish;
- respublika va hududiy kichik biznesni rivojlantirish dasturlarini klaster loyihalarini amalga oshirish chora-tadbirlari bilan uyg'unlashtirish;
- innovatsion tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash institutlari faoliyatini barcha darajada tarmoqlararo va ijrochi organlar bilan kelishilgan holda amalga oshirishni ta'minlash.

Klasterlar doirasida innovatsion tadbirkorlikni moliyaviy qo'llab-quvvatlash davlat va xususiy tarmoq sherikligi sharoitida amalga oshirish maqsadga muvofiq va bu jarayonlarga davlat va mahalliy budget mablag'larinigina emas, balki venchur fondlar, yirik kompaniyalar va tijorat banklar kreditlarini jalb qilish zarur. Shu bilan bir qatorda, innovatsion loyihalarni amalga oshirish uchun moliyaviy resurslarni samarali taqsimlash va jalb qilishga mas'ul bo'lgan franchayzing kompaniyalarni shakllantirish lozim.

Shuningdek, innovatsion klaster subyektlari tomonidan olingan kreditlarni



kafolatlash tizimini joriy qilish, kredit kooperatsiyasi va sug'urtasini rivojlantirish maqsadga muvofiq.

**Uchinchidan**, innovatsion tadbirkorlik tashqi iqtisodiy faoliyati samaradorligini ta'minlash. Shu jumladan, raqobat barqarorligini ta'minlash, tashqi iqtisodiy faoliyat tizimida kichik korxonalar manfaatlarini himoya qilish va qo'llab-quvvatlash, ularning eksport salohiyatini oshirish va mamlakat eksport hajmida innovatsion mahsulotlar ulushini oshirish maqsadida, fikrimizcha, kichik korxonalar eksportni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash bo'yicha kompleks chora-tadbirlar ishlab chiqish lozim. Unda quyidagilarga asosiy e'tibor qaratish maqsadga muvofiq:

- tashqi bozorlarga chiqish uchun tadbirkorlarni tayyorlash dasturini ishlab chiqish va amalga oshirish;

- kichik innovatsion korxonalar uchun ular tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlarni halqaro standartlar bo'yicha litsenziyalash, berilgan qarzlarni davlat tomonidan kafolatlash sharti bilan eksport faoliyatini kreditlash, tashqi iqtisodiy faoliyat bilan bog'liq siyosiy, tijorat, moliyaviy va boshqa xatarlarni sug'urta qilishni ta'minlash, eksporterlarga axborot-maslahat ko'magini tashkil qilishda maxsus imtiyozlar tizimini taqdim etish;

- innovatsion mahsulotlar yarmarkasi va ko'rgazmalarini o'tkazish, reklamani tashkil qilish va xorijiy davlatlarda sheriklarni topishda ko'maklashish;

- innovatsion-texnologik infratuzilmalarni takomillashtirish;

- xalqaro bozorlarda milliy mahsulotlar raqobatbardoshligini oshirish bo'yicha shart-sharoitlar yaratish.

Innovatsion tadbirkorlikni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashning ushbu yo'nalishi xo'jalik yuritish subyektlari eksport salohiyatini oshirish va ularning tashqi iqtisodiy faoliyati samaradorligini ta'minlash imkonini beradi.

Shunday qilib, davlat va bozor iqtisodiyotning innovatsion tarmog'i faoliyatini kengaytirishga ko'maklashishi, samarali milliy sanoat siyosatini olib borish, kichik ishlab chiqarish korxonalar innovatsion faolligini rag'batlantirish, bu birinchi navbatda jamiyatdagi innovatsion taraqqiyotga turtki bo'lmog'i lozim.

## **Uchinchi bob bo'yicha xulosa**

Uchinchi bob bo'yicha xulosa qilib shuni aytish mumkinki, rivojlangan bozor iqtisodiyotiga ega mamlakatlar tajribasiga ko'ra, innovatsiya korxonalarini uchun respublikada qabul qilingan xamda iqtisodiyotning ustuvor sohalarida amal qilayotgan barcha imtiyozlarni qo'llash maqsadga muvofiqdir. Bundan tashqari, ilmiy izlanishlarni bajarayotgan innovatsiya korxonalarini tadqiqot ishlari uchun ilmiy-texnik asbob-uskunalar sotib olgan yilning ozidayoq, 50 foizli amortizatsiya xuquqiga, qolgan asosiy mablaqlar xisobidan esa jadallashgan amortizatsiya xuquqiga ega bo'lishlari lozim.

Innovatsion tadbirkorlik faoliyati uchun kichik korxonalarda yaratilgan yangilikni tijorat maqsadida ishlata oladigan bilim va intuitsiyaga ega bo'lgan mutaxassis lozim.

Bundan tashqari, mamlakatda innovatsion tadbirkorlik subyektlari faoliyatini kengaytirish maqsadida quyidagi chora-tadbirlarni ko'rish zarur:

- innovatsion klasterlarni rivojlantirish bo'yicha davlat maqsadli dasturlarini ishlab chiqish va amalga oshirish;

- respublika va hududiy kichik biznesni rivojlantirish dasturlarini klaster loyihalarini amalga oshirish chora-tadbirlari bilan uyg'unlashtirish;

- innovatsion tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash institutlari faoliyatini barcha darajada tarmoqlararo va ijrochi organlar bilan kelishilgan holda amalga oshirishni ta'minlash.

Shunday qilib, innovatsion tadbirkorlikni institutsional qo'llab-quvvatlash davlat tomonidan tartibga solish vositalari va barcha bozor mexanizmlaridan foydalanishga asoslangan chora-tadbirlar majmuasini o'zida aks ettirishi lozim. Xususan, innovatsion tadbirkorlik subyektlarini rag'batlantirishga yondashuv innovatsion tadbirkorlikning erishgan natijalari, ular faoliyatining tashqi yoki ichki bozorga yo'naltirilganligi, uning qaysi tarmoqqa mansubligi, miqdori va muddatlari bo'yicha tabaqalashgan bo'lishi zarur.

## XULOSA

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida innovatsion tadbirkorlik subyektlari faoliyatini rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Aynan katta mablag‘ talab etmaydigan va resurslarning o‘shish tezligini kafolatlovchi innovatsion tadbirkorlik subyektlari, iqtisodiyotdagi qayta tuzilishlar bilan bog‘liq bo‘lgan muammolarni nisbatan tez va ortiqcha sarf-harajatsiz yechishga, ichki bozorni moliyaviy resurslar chegaralangan sharoitda ham iste‘mol mollari bilan to‘ldirishga, jamiyatda o‘rta sinf mulkdorlar qatlamini shakllanishiga, turli ijtimoiy guruhlar daromadlari nomutanosibligini silliqlab turuvchi iqtisodiy jihatdan faol bo‘lgan aholi ulushini o‘stirishga, nisbatan kam mablag‘ sarflab, yangi ish o‘rinlarini qisqa vaqt ichida yaratishga, innovatsion texnologiyalarni ishlab chiqib, amaliyotga joriy etishga, bozorda sog‘lom raqobat muhitini shakllantirishga, iqtisodiyotning turli sektorlari o‘rtasidagi o‘zaro aloqani mustahkamlashga, eng asosiysi esa mamlakat yalpi ichki mahsulotining o‘shishida rivojlangan mamlakatlar tajribasiga tayangan holda ta‘kidlash lozimki, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari muhim va asosiy manbadir.

Bugungi kunda innovatsion tadbirkorlikni rivojlantirishda qator muammolar yuzaga kelmoqda. Jumladan, huquqiy bazaning to‘liq shakllanmaganligi, innovatsion tadbirkorga yetarlicha innovatsion muhitning yaratilmaganligi va ushbu sohada yetarlicha malakali kadrlarning yetishmasligi.

Iqtisodiyotning erkinlashuvi sharoitida tarmog‘ida faoliyat yurituvchi innovatsion tadbirkorlik subyektlari faoliyatini moliyalashtirishni tashkil etishning ilmiy asosi va mexanizmini ishlab chiqish va uni amaliyotga joriy etish zarurdir. Bunda moliyalashtirishning quyidagi manbalarini ajratib ko‘rsatish maqsadga muvofiqdir: taqsimlanmagan foyda; ichki xo‘jalik zaxiralari; bank tizimning va kredit mablag‘lari ixtisoslashtirilgan bankka oid bo‘lmagan kredit-moliya institutlari; davlat tomonidan markazlashtiriluvchi, investitsiya maqsadlari asosida ajratiladigan mablag‘lar; xalqaro tashkilotlar va chet el investorlaridan kredit va zayomlar ko‘rinishida olingan mablag‘lar; qimmatli qog‘ozlar emissiyasidan olingan mablag‘lar.

Amaldagi qonuniy - huquqiy vositalarni muvofiqlashtirib, davlat tarmog'ida faoliyat yurituvchi kichik biznes va tadbirkorlik subyektlari faoliyatini rivojlantirishda Markaziy bankning qayta moliyalashtirish va soliq stavkalarini maqsadli pasaytirish orqali rag'batlantirish mumkin.

Bugungi kunda tarmoqdagi innovatsion korxonalari faoliyatini rivojlantirishda qo'yidagi muammolar: innovatsion muhitni yaxshilash; eksport va import qilish jarayonini samarali tashkil etish; moliyalashtirish, soliqqa tortish mexanizmi; tayyor mahsulotlarni tashqi va ichki bozorlarga to'liq realizatsiyasini amalga oshirish muammosi mavjudligi aniqlandi.

Bitiruv malakaviy ishida olib borgan ilmiy tadqiqotlar natijasida quyidagi amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi.

1. Innovatsion tadbirkorlini rivojlantirishda davlat tomonidan qo'llab-quvvatlanish, soliq bo'yicha imtiyozlar berilishida yagona mezon sifatida olinishi munozaralidir. Kichik korxonalarni aniqlashda mezon sifatida ularda faoliyat yuritayotgan ishchilar sonidan kelib chiqish, O'zbekiston uchun dolzarb masalalardan bo'lgan aholi bandligi masalasini holisona hal etishga monelik qilishi mumkin.

2. Mahsulotlarini ishlab chiqarishga ixtisoslashtirilgan yangi tashkil etilgan mikrofirma va kichik korxonalariga yagona soliq to'lovini to'lash muddatini kechiktirish tarzidagi soliq imtiyozini haqiqatda korxonalar faoliyati uchun ijobiy ta'sir etishiga erishish maqsadida, kechiktirilgan soliq summasini kechiktirilgan oylarda korxonalar olgan daromadlari hajmiga mutanosib ravishda to'lash mexanizmini joriy etish maqsadga muvofiqdir.

3. Faoliyat yuritayotgan innovatsion tadbirkorlik subyektlari faoliyatini samarali tashkil etish maqsadida rivojlangan mamlakatlar tajribalarida keng foydalanib kelinayotgan outsorsing xizmatlarini ko'rsatuvchi kompaniyalarni tashkil etish lozim.

4. Faoliyat yuritayotgan innovatsion tadbirkorlik subyektlari faoliyatini rivojlanishiga ta'sir etuvchi omillarni obyektiv va subyektiv omillarga ajratgan holda tadqiq etish maqsadga muvofiqdir.

5. Innovatsion tadbirkorlikni rivojlantirish hamda korxonalarning aylanma mablag'larini ko'paytirish maqsadida, tarmog'ida faoliyat yuritayotgan kichik korxonalarni soliqqa tortish tizimini takomillashtirish borish lozim.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari ishlab chiqarayotgan mahsulotlarini sotish tizimini takomillashtirish maqsadida har bir tuman yoki mintaqalar doirasida tarmog'ida faoliyat qiluvchi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari hamkorligida marketing tadqiqotlarini amalga oshiruvchi va sotish bilan shug'ullanuvchi kooperativ uyushmasi tashkil etish maqsadga muvofiq. Bunda maxsulot ishlab chiqaruvchilar hamda xaridorlar manfaatdor bo'ladi. korxonalari ishlab chiqarilgan mahsulotni sotishi uchun kafolatli bozorga ega bo'lishadi shuningdek qayta ishlash korxonalari xomashyo etishmovchiligi muammosini hal etadi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

### **I. O‘zbekiston Respublikasi qonunlar, O‘zbekiston Respublikasi Prezident qarorlari, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari va boshqa huquqiy-me‘yoriy hujjatlar, O‘zbekiston Respublikasi Prezident asarlari**

1. O‘zbekiston Respublikasining “Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to‘g‘risida” Qonuni. 2000 yil 25 may. // O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi., 2000 y., № 5.

2. Xususiy tadbirkorlik va kichik biznesni qo‘llab-quvvatlash fondi (Biznes-fondi)ni tashkil etish to‘g‘risida. O‘zbekiston tovar ishlab chiqaruvchilar va tadbirkorlar Palatasini tashkil qilish to‘g‘risidagi Farmonlari 2005y.

3. “Xususiy korxonalar to‘g‘risida” O‘zbekiston Respublikasining Qonuni. 2003 yil 11 dekabr.// O‘zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari to‘plami., 2004 y., № 3.

4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2005 yil 20 iyundagi “Mikrofirmalar va kichik korxonalarini rivojlantirishni rag‘batlantirish borasidagi qo‘shimcha chora tadbirlar to‘g‘risida”gi PF 3620 sonli Farmoni.

5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2007 yil 14 martdani “Ishlab chiqarishni modernizatsiyalash, texnik va texnologik qayta jihozlashni rag‘batlantirishga oid qo‘shimcha chora tadbirlar to‘g‘risida”gi №3860 sonli Farmoni.

6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Tadbirkorlik subyektlari tomonidan taqdim etiladigan hisobot tizimini takomillashitirish va uni noqonuniy talab etganlik uchun javobgarlikni kuchaytirish to‘g‘risida”gi 2005 yil 15-iyundagi qarori. – “Xalq so‘zi” gazetasi. 2005 yil 17-iyun.–B.1.

7. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Mikrofirmalar va kichik korxonalarini rivojlantirishni rag‘batlantirish borasidagi qo‘shimcha chora tadbirlar to‘g‘risida”gi 2005 yil 20-iyundagi Farmoni. – “Xalq so‘zi” gazetasi. 2005 yil 21-iyun.–B.1.

8. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Tadbirkorlik subyektlarining xo‘jalik sohasidagi huquqbuzarliklari uchun moliyaviy javobgarligini

erkinlashtirish to‘g‘risida”gi 2005 yil 25-iyundagi Farmoni. – Soliq to‘lovchining jurnali.–2005.–№7–B.11.

9. Soliqqa oid qonun hujjatlari. 2011 yil.–Toshkent: “NORMA” MChJ, 2011.–416 b.

10. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2008 yil 10 noyabrdagi PF-4051-sonli “Mikrokreditbank aksiyadorlik tijorat bankining tadbirkorlik subyektlarini qo‘llab-quvvatlash borasidagi faoliyatini yanada kengaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni. O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami. Rasmiy nashr. Toshkent, 2008. №4 O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2008 yil 10 noyabrdagi PF-4051-sonli “Mikrokreditbank aksiyadorlik tijorat bankining tadbirkorlik subyektlarini qo‘llab-quvvatlash borasidagi faoliyatini yanada kengaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi Farmoni. O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami. Rasmiy nashr. – Toshkent, 2008. №46. 3-5 b.

11. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2011 yil 24 avgustdagi “Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni yanada rivojlantirish uchun qulay ishbilarmonlik muhitini shakllantirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-4354-sonli Farmoni.

12. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2011 yil 25 avgustdagi “Byurokratik to‘siqlarni bartaraf etish va tadbirkorlik faoliyati erkinligini yanada oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-1604-sonli qarori.

13. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2011 yil 4 apreldagi “Tadbirkorlik subyektlarini tekshirishlarni yanada qisqartirish va ular faoliyatini nazorat qilishni tashkil etish tizimini takomillashtirish borasidagi qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-4296-sonli farmoni.

14. Karimov I.A. Xususiy tadbirkorlik va kichik biznesni qo‘llab-quvvatlash fondi (Biznes-fondi)ni tashkil etish to‘g‘risida. O‘zbekiston tovar ishlab chiqaruvchilar va tadbirkorlar Palatasini tashkil qilish to‘g‘risidagi Farmonlari; O‘zbekiston mustaqillik yillarida. T.: O‘zbekiston, 1996. 37-38 b.

15. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning 2015 yilning

asosiy yakunlari va 2016 yilda O‘zbekistonni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlariga bag‘ishlagan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma‘ruzasi.

## II. Asosiy va qo‘shimcha adabiyotlar

1. Abdullayev Yo. Kichik biznes va tadbirkorlik asoslari. T.: O‘quv qo‘llanma. “Mehnat”, 2002.
2. Акимов О. Ю. Малый и средний бизнес: Эволюция понятий, рыночная среда, проблемы развития. Изд: Финансы и статистика, 2011.
3. Вахобов А.А. Bozor munosabatlari tizimidagi ijtimoiy fondlar. T.: “Sharq”, 2003.
4. Лизинг – это сервис в комплексе с финансами. Налоговые и таможенные вести. Ташкент. 2007. №21.
5. Cambell Mc.Connel, Stanley Brul, Seam Brul. Economics: Principle, Problems and Policies. pub.: Megran Mill series in Economics, 2014. 327 page.
6. William M. Pride Robert J .Hughes. Business January 1, Pub. Cendade Learning, 2011. 238 page.
7. Justin G., Lngenecker J., William Petty Small. Business Management: 17<sup>th</sup> Edition. Izdanie: South – Western College pub. 2013.
8. Gary S. Besker . Economic Theory. pub .: Transition Publishers, 2008.
9. Маслов Д.В., Белокоровин Е.А. Малый бизнес: Стратегии совершенствования на основе управления качеством. Изд.: ДМК Пресс, 2008.
10. Mirsaidov M.S.Tadbirkorlik asoslari.–T.: “O‘zbekiston”, 2002.
11. Navro‘zzoda B.N. Marketing: bozorni bilish mahorati. O‘quv-metodik qo‘llanma. Buxoro. “BuxDU nashriyoti”, 2006.
12. Pardayev A.X., Azimov B. Korxonalar faoliyatini soliqlar vositasida tartibga solish. Toshkent.: “ZAR-QALAM”, 2005.
13. Терехова С.В., Подолякин О.В., Уснгов В.С. Предпринимательство в регионе: состояние, перспективы. Изд.: ИСЕРТ РАН, 2011. 53-67 стр.
14. Qosimova M.S., Xodiyev B.Yu, Samadov A.N. va boshqalar. Kichik biznesni boshqarish. O‘quv qo‘llanma.: - T.: “O‘qituvchi”, 2003.
15. G‘ozibekov D.G. va boshqalar. Lizing munosabatlari nazariyasi va



amaliyoti.-T.: Fan va texnologiyalar, 2004.

16. G'ulomov S.S. Tadbirkorlik va kichik biznes. T.: "Sharq", 2002. 175-230 b.

17. Xodiyev B.Yu. va boshqalar. Kichik tadbirkorlik faoliyati asoslari. O'quv-amaliy qo'llanma. – T.: EX. TEMPUS dasturi "Matodor-2000" loyihasi, 2004.

### **III. Davriy nashrlar, statistik hisobotlar va to'plamlar.**

1."Xalq so'zi" gazetasi, 2010-2015-yillardagi soni.

2."O'zbekiston iqtisodiy axborotnomasi" jurnali, 2012-2014-yillardagi soni.

3."Pul, kredit va banklar" jurnali, 2013-2015-yillardagi soni.

### **IV. Internet saytlari**

[www.lex.uz](http://www.lex.uz)

[www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)

[www.stat.uz](http://www.stat.uz)

[www.mf.uz](http://www.mf.uz)

[www.book.com](http://www.book.com)

**Jizzax viloyati mahalliy budjetining 2014 yil I chorak va kunlik daromadlar rejasi va tushumi  
haqida 8 mart holatiga tezkor ma'lumot<sup>10</sup>**

---

<sup>10</sup> Jizzax shahar hokimligi moliya bo'limi ma'lumoti.

№	Shahar va tumanlar nomi	2014 YIL I ChORAK				MART OYI				shundan: Mart oyi bir kunlik			
		Tasdiqlangan reja	Haqiqatda tushum	Farqi (+;-)	%	Rejasi	Tushumi	Farqi	%	Rejasi	7-mart kungi tushum	Farqi	%
1	Arnasoy t.	1 362 579,0	716 703,6	-645 875,4	52,6%	664 741,4	18 866,0	-645 875,4	2,8%	30 215,5	0,0	-30 215,5	0,0%
2	Baxmal t.	2 472 562,0	1 807 007,4	-665 554,6	73,1%	736 704,3	71 149,7	-665 554,6	9,7%	32 041,7	19 020,0	-13 021,7	59,4%
3	G'allaorol t.	4 399 770,0	2 579 587,9	-1 820 182,1	58,6%	1 970 795,9	150 613,8	-1 820 182,1	7,6%	84 381,6	20 506,0	-63 875,6	24,3%
4	Jizzax t.	3 837 257,0	2 882 623,6	-954 633,4	75,1%	1 066 663,3	112 030,0	-954 633,4	10,5%	40 737,1	24 434,0	-16 303,1	60,0%
5	Do'stlik t.	1 923 143,0	1 224 505,3	-698 637,7	63,7%	775 450,9	76 813,2	-698 637,7	9,9%	32 815,3	18 336,0	-14 479,3	55,9%
6	Zomin t.	3 979 143,0	2 698 433,2	-1 280 709,8	67,8%	1 385 846,5	105 136,7	-1 280 709,8	7,6%	60 320,8	15 234,0	-45 086,8	25,3%
7	Zarbdor t.	2 181 548,0	1 285 973,4	-895 574,6	58,9%	951 981,8	56 407,2	-895 574,6	5,9%	42 220,0	21 748,0	-20 472,0	51,5%
8	Zafarobod t.	1 535 488,0	892 038,2	-643 449,8	58,1%	692 607,3	49 157,5	-643 449,8	7,1%	30 036,5	13 371,0	-16 665,5	44,5%
9	Mirzacho'l t.	1 728 317,0	898 644,9	-829 672,1	52,0%	902 786,1	73 114,1	-829 672,1	8,1%	38 240,5	11 176,0	-27 064,5	29,2%
10	Paxtakor t.	2 205 597,0	1 382 135,1	-823 461,9	62,7%	885 627,4	62 165,5	-823 461,9	7,0%	37 354,2	19 273,0	-18 081,2	51,6%
11	Forish t.	2 895 543,0	1 460 429,1	-1 435 113,9	50,4%	1 532 238,7	97 124,9	-1 435 113,9	6,3%	66 938,8	7 990,0	-58 948,8	11,9%
12	Yangiobod t.	1 159 264,0	352 240,4	-807 023,6	30,4%	829 935,3	22 911,6	-807 023,6	2,8%	36 856,3	439,0	-36 417,3	1,2%
13	Jizzax sh.	3 965 066,0	4 073 293,1	108 227,1	102,7%	191 681,8	299 908,9	108 227,1	156,5%	1 022,4	46 947,0	45 924,6	4591,8%
14	Viloyat byud.	34 441 175,0	23 816 491,9	-10 624 683,1	69,2%	12 518 223,2	1 893 540,1	-10 624 683,1	15,1%	532 206,6	378 743,0	-153 463,6	71,2%
<b>Jami:</b>		<b>68 086 452,0</b>	<b>46 070 107,1</b>	<b>-22 016 344,9</b>	<b>67,7%</b>	<b>25 105 284,0</b>	<b>3 088 939,1</b>	<b>-22 016 344,9</b>	<b>12,3%</b>	<b>1 065 387,3</b>	<b>597 217,0</b>	<b>-468 170,3</b>	<b>56,1%</b>

